

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ
TA'LIMI VAZIRLIGI**

**A. QODIRIY NOMLI
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI**

**Xaitov F.N., Yusupov R.M., Botirov D.B.,
Sattarov A.R, Shukurov E.X.**

«WEB-TEKNOLOGIYALAR»

Jizzax - 2005

Ushbu metodik qo'llanmada matematika-informatika ixtisosligi talabalari «Web-texnologiyalar» fanini o'rganishi uchun asosiy tushunchalar keltirilgan.

Metodik qo'llanma pedagogika instituti talabalariga va HTML tilini mustaqil o'rganmoqchi bo'lganlarga mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

Jizzax Politexnika Instituti
dotsenti Qo'ziev B.

A.Navoiy nomli SamDU «matematik
modellashtirish» kafedrasida dotsenti
O'rinboyev E.

KIRISH

Bugungi kunda Interneting ommaviyligi haqida gapirish o'rinsiz. Internet hayotimizning bir bo'lagiga aylandi, biz uning xizmatlaridan har kuni foydalanishga odatlandik. Hozirda ixtiyoriy inson web-texnologiyalarning inson hayotining ta'lim, kommersiya, siyosat, ko'ngil ochar , ... bo'laklariga kirib borganligini tasavvur eta oladi va uning guvohi va foydalanuvchisiga aylanmoqda.

Internet turli xil insonlarni yagona maqsad bilan birlashishiga sabab bo'lmoqda. Hamma Internet tarmag'idan biror turdagi informatsiya olishga harakat qiladi. Shunday vaqtlar keladiki, hujjatni Internetda chop etish malakasi yozuv mashinkasidan foydalanish kabi har bir hatto o'rta ma'lumotga ega bo'lgan insonning qo'lidan keladi.

Mazkur qo'llanma web-hujjatlarni yaratish, ularni Internetda chop etish, web-hujjatni ko'rkamlashtirish, qiziqarli va o'ziga tortuvchi qilib yaratish, vaqti kelsa ma'lumotlarni yangilash kabi vazifalarni o'rgatishga mo'ljallangan.

Dastlabki web-sahifalar juda sodda tuzilishga ega bo'lib, ular matnni formatlash va giperko'rsatkichlardan tarkib topgan edi.. Web texnologiyalar rivojlanishi natijasida Web sahifalar tarkibida Plug-in dasturlar joylashtirila boshlandi, natijada Web sahifalarga iteraktiv xususiyati berildi. Web texnologiyalarning rivojlanishining oxirgi natijalaridan biri bu skript tillaridir (Script Languages). Ularni ishlatishdan maqsad Web serverining ishini engillashtirish, xar-xil mayda ishlar uchun Web serverini bezovta qilmasdan, bunday masalalarni foydalanuvchi kompyuterining o'zida yaratishdir. Web texnologiyasining oxirgi erishgan yutuqlaridan biri dinamik Web sahifalardir. Dinamik Web sahifalar CGI dasturlar bilan bevosita bog'liq bo'lib, CGI dasturlar serverda joylashgan va server imkoniyatlarini ishlatuvchi dasturlardir. Ular serverga kelgan so'rovlarni qayta ishlaydi va qayta ishlash natijasida yangi Web sahifa hosil bo'ladi.

Web sahifa Internet tarmoqlarida joylashgan fayllar to'plami bo'lib, ularni soni soat sayin ko'payib bormoqda. Bu fayllarda ma'lumotlarni turli xillarini: matn, grafik, tasvir, video, audio ma'lumotlarni uchratish mumkin. Bugungi kunda Web Internet resurslari ichida eng ommaviysi hisoblanadi. Chunki, avvaldan tayyorlangan Web sahifa orqali tegishli ma'lumotlarni to'ldirish foydalanuvchining qanchadan-qancha vaqtini tejash imkonini beradi. Shu bois matematika va informatika yo'nalishida tahsil oluvchi talabalarga Web texnologiyalarni alohida kurs sifatida o'qitila boshlandi.

Ushbu qo'llanma kamchiliklardan xoli emas. Bundan tashqari turli o'quv muassasalarida o'quv ishlab chiqarish amaliyotini o'tkazish bo'yicha turli xil tajribalar to'plangan.

O'z tajribalari bilan qo'llanmani to'ldirishga va kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha o'z fikr va mulohazalarini bildirgan o'rtoqlarga oldindan o'z minnatdorchiligimizni bildiramiz.

Mualliflar

1-Mavzu. Ma'lumotlarni Internetda chop etish asoslari

- a) Internet tarixiga bir nazar.
- b) «Butunjaxon O'rgimchak to'ri»ning ishlashi haqida.
- c) HTTP – nima?
- d) HTML – nima?
- e) Gipermatn va gipermurojaat.
- f) URL – nima?
- g) URL da qo'llaniladigan protokollar.

::A::

Internetning paydo bo'lishi tarixi 60-yillarning oxirida Amerika hukumati tomonidan asos solingan ARPANet (Advanced Research Projects Agency tashkiloti) hisoblash tarmog'iga borib taqaladi. Tarmoq harbiy tashkilotlarga xizmat qilgan.

1980 yillar boshlarida ma'lumotlarni uzatishni boshqarish protokoli TCP/IP (Transmission Control Protocol / Internet Protocol) ga asos solindi. Taxminan shu vaqtda ma'lum bo'ldiki, TCP/IP dan turli milliy va xalqaro darajadagi kompyuter tarmoqlarini bog'lashda foydalanish mumkin.

1989 yilning oxirida ARPANet mukammal holga etib keldi, lekin bu vaqtga kelib ko'pgina univetsitetlar va ilmiy muassasalar Internetga ulangan edilar. 1990 yillar boshlarida korporatsiyalar ham Internetdan elektron pochta orqali ma'lumotlar almashishda aktiv ishtirok etardilar. U vaqtlarda Milliy Ilmiy fond tijorat maqsadida Internetdan foydalanishni ta'qiqlagan edi. 1991 yilda bu cheklash bekor qilinadi va Internetdan tashkilot, muassasa, nohukumat tashkilotlarining foydalanish darajasi ortdi, shuningdek, tijorat maqsadida Internetdan keng foydalanila boshlandi (Internet magazinlar, Internet reklamalar va h.k.).

1993 yilda birinchi web-brauzer Mosaic paydo bo'ldi.

::B::

WWW (World Wide Web) – bu qanaqadir Internetdan ajratilgan ma'lum bir joy emas, kompyuter aloqa o'rnatadigan biror nima ham emas. Butunjahon o'rgimchak to'rini Internet doirasidagi xizmat deyish to'g'riroq. Web-serverlar deb ataluvchi ma'lum protokollardan, kompyuterlardan foydalanish orqali (chunki ular tarmokka ulangan va server dasturiy ta'minotiga ega) Internet xizmati yo'lga qo'yiladi.

Kompyuter web-server bo'lishi uchun Internetga ulangan va server dasturiy ta'minoti (DT) ga ega bo'lishi etarli. Bu DT bilan Windows, Mac OS, Unix kabi operatsion sistemalar ta'minlay oladi. Web-server har doim Internetda "o'tiradi" va talab qilingan tomonga kerakli informatsiyani jo'natadi.

.:C:.

Gipetmatn jo'natish protokoli (HTTP) web-brauzer va web-server muloqotining asosini tashkil etadi. Web-brauzer HTTP maxsus komandasi orqali server bilan bog'lanish uchun so'rov jo'natadi. Agar so'rov qoniqtirilsa, brauzer server bilan bog'lanadi. Qabul qiluvchi tomon nima qilishni o'zi xal qiladi yoki ekranda faylni ko'rsatadi, yoki uni diskda saqlab qo'yadi va h.k. HTTP Internetda foydalaniladigan yagona protokol emas. Fayllar uzatish protokoli (Post Office Protocole – POP, Simple Mail Transport Protocole - SMTP), shifrlangan HTTP protokoli (SHTTP) kabi protokollar mavjud.

.:D:.

Gipermatnlar tili (HTML) web-brauzerlar ekraniga ma'lumotlarni standart kodlar orqali chop etish imkoniyatini beradi. HTML dan foydalanib o'zida taxrirlangan matn, tasvir, multimediya elementlarini aks ettirgan veb-saxifalarni yaratish mumkin.

HTML ni dasturlash tillaridan farqlash lozim. HTML ni veb-brauzerlarga matn yoki tasvirlarni qay holatda chop etish ko'rsatmalar nabori deyish ham mumkin. Masalan HTML xujjat o'zida quyidagi matnni aks ettirgan bo'lsin:

```
<h1><b> Mening saxifamga xush kelibsiz </b></h1>
```

Bu matndagi <h1> va </h1> teglari asosiy matnni o'rta olib turibdi. Web-brauzer tushunadiki, bu teglar o'rtasidagi matn 1-darajali kattalikdagi sarlavha holatida ekranga sop etilish kerak. va teglari esa, ular o'rtasidagi matn qalinlashtirilgan holda yozilishi kerakligini bildiradi.

.:E:.

Butunjaxon o'rgimchak to'ringining asosiy va HTML ning tarkibiy qismini gipermatnlar va gipermurojaatlar tashkil etadi. Maxsus komandalar yordamida matnning ma'lum qismi shunday ajratiladiki, natijada o'sha matn ustiga sichqon tugmasi bosilsa boshqa matn yoki saxifa ochiladi. Bundan tashqari multimediya vositalarining ishlab ketishi yoki bo'lmasa, ma'lumotni diskda saqlash taklifi ham berilishi mumkin.

Gipermatn yoki gipermurojaat biror bir tasvirga ham qo'yilishi mumkinki uning ustiga bosilganda ham yuqorida aytilgan holatlar ro'y berishi mumkin.

Har bir web-saxifa o'zida bir nechta gipermatn yoki gipermurojaatlarni mujassam etishi mumkin.

.:F:.

Internet xizmatlarining ko'pchiligiga dostup (ruxsat, yo'l) adresatsiya sxemasi (URL) yordamida qiziktirilgan ixtiyoriy hujjatni topish imkoniyatini beradi. Har bir tur boshqasidan farq qiluvchi o'zining format adresiga ega.

Masalan, mening adresimga xat yozish uchun foydalanuvchi o'zining pochta adresiga azamat@intal.uz ni yozishi kerak bo'ladi. Boshqa tomondan Intal kompaniyasining web-sahifasini yuklash uchun veb-brauzerning adreslar paneliga www.intal.uz ni yozishi kerak.

Shunday qilib URL bu – so'ralayotgan xujjatning aniq adresini ko'rsatish imkoniyatini berish uchun www.intal.uz kabi adreslar turlari kombinatsiyasi va yana ko'shimcha elementlarga ega. URL day foydalanib, veb-brauzerlar yordamida ixtiyoriy xujjat va xizmatlarga dostup olish mumkin. URL quyidagi tartibda yoziladi:

Protokol://internet_adres /yo'l /fayl_nomi.kengaytma
yoki **Protokol://internet_adres**

URL ga misol:

<http://www.microsoft.com/windows/index.html>

Bu erda:

http://	–	protokol;
www.microsoft.com	–	internet_adres (Microsoft kompaniyasinnig web- serverinnig nomi)
/windows/	–	yo'l
index	–	fayl_nomi
html	–	kengaytma

::G::

URL da qo'llaniladigan protokollar ro'yxati:

Protokol nomi	Protokol nimaga dostup berishi mumkinligi
http://	HTTP (vab) serverlariga
https://	Shifrlangan ba'zi bir HTTP (web) serverlarga
file://	Foydalanuvchi qattiq diskidagi fayllarga
ftp://	FTP server fayllariga
gopher://	Gopher menyu va fayllariga
news://	Usenet yangiliklar serverlari gruppasiga
news:	Aniq Usenet yangiliklar gruppasiga
mailto:	Aniq elektron pochta adresiga
telnet:	Telnet udalen serveriga

2-Mavzu. Web sahifa yaratish uchun nimalar kerak? Birinchi Web sahifa

- a) Matn muharrirlari. HTML muharrirlari.
- b) Animatsiyalar yaratish. Multimedia elementlari.
- c) Fayllarni joylashtirish usullari. Fayllarni qanday nomlash kerak?
- d) HTML shablonni yaratish.
- e) Web sahifaning tanasi. Abzatslar.
 tegi.
- f) Saqlash va sinab ko'rish.

..A:..

Windows muxitidagi matn muxarrirlari: Notepad, TextPad, UltraEdit, EdutPlus. Ko'rsatilgan hamma matn muharrirlari yordamida HTML kodlarni yozishda qo'llash mumkin.

Ko'pgina matn muharrirlarida HTML kodlarni hatto programmashtirish tillarida kodlarni yozish juda qulay. Ba'zilar avtomatik ravishda operatorlar, funktsiyalarni tanish va ularni xar-xil ranglarda tasvirlash imkoniyatiga ega. Ba'zi matn muxarrirlarida HTML hujjatni web brauzerda sinab ko'rish tugmasi mavjud.

HTML xujjatni yaratishga mo'ljallangan maxsus programmlar (HTML muxarrirlar) ham mavjud: FrontPage, Adobe GoLive, Macromedia Dreamweaver, Nestcape Composer. Muharrirlar 2 turga bo'linadi:

- kod muxarrirlari;
- WYSIWYG texnologiyasi (What You See Is What You Get – niman ko'rsang o'shani olasan) asosida ishlaydigan muharrirlar. Bu muharrirlar yordamida foydalanuvchi HTML komandasi va elementlarini yozmaydi, oddiy matn muxarrirlaridek matn yozadi, tasvirlarni kerakli joyga joylashtiradi, formatini o'zgartiradi va x.k. xolos.

..B:..

Web animatsiyalar turlicha bo'ladi. Masalan *GIF Animator* dan foydalanib, tasvirlarni «Jonlantirish» mumkin. Bu web reklamalarda ko'p qo'llaniladi.

GIF animatsiyalarni Ulead GIF Animator (<http://www.ulead.com>) va Animagic GIF Animator (<http://www.rtlsoft.com/animagic/index.html>) programmlari yordamida hosil qilish mumkin. GIF tasvirlardan yuqorirok o'rinda Macromedia Flash yordamida yaratilgan animatsiyalar turadi. Bu animatsiyalar interaktiv bo'lganligi sababli Flash texnologiyalar ommalashib borayapti. Bu texnologiyani ayniqsa avtomobil ishlab chiqaruvchilar, web-bizneschilar, umuman, multimedia-prezentatsiya yaratmoqchi bo'lganlar keng qo'llaydilar.

Macromedia (<http://www.macromedia.com/flash/>) dan tashqari CoffeeCup Firestarter (<http://www.coffeecup.com>) dan foydalanib animatsiyalar yaratish mumkin.

Agar foydalanuvchi multimedia saxifasina yatarmoqchi bo'lsa, qo'shimcha instrumentlardan foydalanishiga to'g'ri keladi, masalan, Quick Time, Windows Media yoki boshqa multimedia programmalari.

Microsoft kompaniyasi Windows ME va undan keyingi chiqargan OS larida Windows Movie Maker programmasini qo'shib chiqarayapti. Bu programma yordamida video rolidlarni tahrirlash mumkin bo'ladi. Yana Sound Forge XP (<http://www.soniefoundry.com>) programmasidan tovushlarni tahrirlash va konvertatsiya qilishda foydalanish mumkin.

.:C:.

Web sahifalar yaratishda fayllarni joylashtirishning quyidagi usullari mavjud:

- **Hamma fayllar bitta katalogda.** Bir nechta HTML sahifali va bir nechta tasvirlarga ega kichik saytlarni yaratishda hamma fayllarni bitta katalogda joylashtirish mumkin. Bu usulning qulayligi shundaki, o'zaro murojaatlarda hech qanaqa yo'l ko'rsatish shart emas. Yomon tomoni esa, sayt rivojlanib, kengayib borsa, fayllar ko'payib, hammasi aralashib ketadi.
- **Funksional kataloglar.** Murakkab saytlarni yaratishning bir usulidir. Har bir katalogda sistemaning bitta funktsiyali qismi joylashtiriladi. Eng yuqorida boshlangich fayl – index.htm, va unga tegishli tasvirlar bo'ladi. Kataloglar nomlari taxminan quyidagicha bo'lishi mumkin: "Firma_haqida", "Aloqalar", "Mahsulotlar". Har bir katalogda tegishli HTML fayllari va tasvirlar saqlanadi.
- **Fayl turlari bo'yicha kataloglar.** Bu usulda har bir katalogda bir xil turdagi fayllar saqlanadi. Bu yerdagi fayllar qaysi funktsiyani bajarishi muhim emas. Yuqori katalogda faqat index.htm fayli joylashadi. Kataloglar nomlari taxminan quyidagicha bo'lishi mumkin: "Images", "Products", "Downloads",...

Ixtiyoriy faylning kengaytmasi uning muxim kismidir. Chunki brauzer fayllarni uning kengaytmasiga qarab "taniydi".

Odatda birinchi saxifa har doim index.htm, index.html kabi saqlanadi. Ko'pchilik brauzerlar agar URL aniq ko'rsatilmasa bu fayllarni avtomatik yuklashga harakat qiladi. Masalan, brauzerning adreslar paneliga <http://www.microsoft.com> deb yozilsa <http://www.microsoft.com/index.htm> faylini yuklaydi.

Faylni saqlashga unga mantiqiy nom tanlash kerak bo'ladi. Fayl nomidan uni boshqa fayllardan oson ajrata olish kerak. Masalan, about_inst.htm, fiz_mat.htm, rector.jpg kabi nom qo'yish maqsadga muvofiq.

.:D:.

Notepad ni ochamiz. HTML faylni yaratishni boshlaymiz.

Sarlavxa yozish uchun:

```
<head>  
</head>
```

teglari yoziladi.

Brauzer bu teglar o'rtasidagi matnni sarlavxa deb tushunadi va Brauzerning eng tepa qismiga shu matnni yozadi. Endi saxifaning tanasini hosil qilamiz:

```
<body>  
</body>
```

Bu teglar o'rtasiga xamma matn va tasvirlarni joylashtirish kerak. HTML shablon bo'lishi uchun HTML sahifaning sarlavxa va tanasini o'z ichiga olgan quyidagi zarur teglar etishmayapti:

```
<html>  
</html>
```

Demak HTML shablon quyidagi ko'rinishga ega bo'ldi:

```
<html>  
<head>  
</head>  
<body>  
</body>  
</html>
```

<head> va </head> teglari o'rtasiga quyidagi teglarni joylashtirish mumkin:

<title>, </title> – xujjat nomi. Masalan:

```
<title> JDPI ning Veb saxifasi </title>
```

<meta /> – ma'lumotlar haqidagi ma'lumot. Ya'ni bu erda asosiy terminlar yoziladi. Qidiruv sistemalari ishlaganda aynan shu terminlar bo'yicha qidirish ishini olib boradi, saytlarni topadi. Masalan:

```
<meta name="keywords" content="JDPI, Jizzax, Pedagogika,  
Institut, Fakultet, Student"/>
```

content 50-200 ta so'zni o'z ichiga olishi mumkin.

name=("keywords", "autor", "copyright", "description") – maxfiy qidirishda qo'llaniladi, HTTP serverga dostup berish uchun http-equiv qo'llaniladi.

.:E:.

<body> va </body> teglari o'rtasiga sahifaning tanasi joylashtiriladi. Bu soxada Brauzer oynasida foydalanuvchi ko'rishi kerak bo'lgan matn, gipermurojaat, tasvirlar, jadvallar, ... ni joylashtirishiriladi.

<p>, </p> teglari ular orasidagi matnni aloxida abzats ko'rinishida yozilishini ta'minlaydi. Masalan:

```
<p> Bu yangi abzats</p>
```

```
<p> </p> – bo'sh abzats joyini tashlaydi.
```

Matn muxarrirlari yordamida HTML kodni yozganda bo'sh joy va abzatslarni ahamiyatga ega emas. Ya'ni

```
<p> Bu yangi abzats </p>
```

bilan

```
<p> Bu  
yangi  
abzats </p>
```

yozuvlari brauzer oynasida bir xil ko'rinishga ega bo'ladi.

Agar yozuvni yangi abzatsdan emas, yangi qatordan boshlash kerak bo'lsa,
 tegidan foydalanish mumkin. Masalan

```
<p> Jizzax shaxri<br />  
Sh. Rashidov shox ko'chasi<br />  
Tel:226-18-57 <br />
```

.:F:.

Web saxifani yaratishda hamma fayllarni to'g'ri saqlash kerak. Keyin sayt yaratuvchisi o'zi hohlagan natijaga erishganligini tekshirib ko'rishi kerak.

Saqlash va sinab ko'rish ketma-ketligi:

1. File -> Save File xamma o'zgarishlarni saqlash.
2. Brauzerda shu faylni ochish kerak. Open -> File.
3. Natijani ko'rish.
4. Agar biror joyi to'g'ri ishlamasa, matn muxarririga qaytib xatolarni to'g'rilash kerak.
5. Agar sahifa Web brauzerda ochiq holda turgan bo'lsa Obnovit tugmasini bosib o'zgarishlarni tekshirish kerak.

3-Mavzu. Matnni formatlash. Web-saxifalarda grafika

- A) Sarlavhalar. Gorizontal chiziqlar. Matn stilizatsiyasi.
- B) Fizik stillar elementlari. Mantiqiy stillar elementlari.
- C) Abzats stillari elementlari.
- D) <blockquote>, <address>, <ins>, elementlari.
- E) Ro'yxatlar.
- F) Tasvirlar. Tasvirlarning formatlari.
- G) Tasvir yaratish, formatini o'zgartirish.
- H) elementi.
- I) Matn va tasvirlarni joylashtirish

.:A:.

Sarlavhalar <p> tegi kabi aloxida abzats ko'rinishida ifodalanadi. Sarlavxalarning 1-dan 6-gacha pog'onalari mavjud.

```
<h1 align="center">Eng katta sarlavxa</h1>
<h2>2-darajali kattalikdagi sarlavxa</h2>
<h3>3-darajali kattalikdagi sarlavxa</h3>
<p>Bu oddiy matn</p>
<h4>4-darajali kattalikdagi sarlavxa</h4>
<h5>5-darajali kattalikdagi sarlavxa</h5>
<h6>Eng kichik sarlavxa </h6>
```

Xar xil ajratuvchi gorizontal chiziqlar <hr /> tegi yordamida qo'yiladi. Bu chiziq abzatslar oralig'ida joylashib, brauzer oynasining eni bo'ylab chiziladi. Agar foydalanuvchi brauzer oynasini o'lchamlarini o'zgartirsa, chiziq ham mos ravishda o'zgaradi.

<hr /> tegi
 tegi kabi ochiq teg hisoblanadi, ya'ni bu teglarni yopuvchi tegi bo'lishi talab qilinmaydi.

HR – “horizontal rule” (gorizontal chiziq) dir. <hr /> tegining atributlari:

Atribut nomi	Vazifasi
Size	Gorizontal chizikning kalinligi. Eng katta ulcham 5 pikselni qo'llash tavsiya etiladi.
Width	Chiziqning enini belgilaydi, foizlarda beriladi.
Align	Chiziqning joylashishi: brauzer oynasining chap tomonida, o'ng tomonida, o'rtasida.
noshade	Chiziqning tashqi ko'rinishini belgilaydi.

Masalan:

```
<hr size="4" align="center" width="50%" noshade="noshade" />
```

Endi matn stilizatsiyasi xakida. Teglar texnologiyasi yordamida bir nechta yangi elementlar keltiriladi. Stillar ikki xil bo'ladi: fizik stillar va mantiqiy stillar.

.:B:.

Matn muharrirlari bilan ishlash jarayonidan bilamizki, matnlarni xar-xil ko'rinishda ifodalanishi mumkin: qalinlashtirilgan (polujirniy), qo'lyozma shaklida (kursiv), tagi chizilgan (podcherknutiy) ... Bu elementlarni ixtiyoriy grafik brauzerlar bir xil ko'rinishda ifodalaydilar. Ba'zi bir fizik stillar:

Element	Vazifasi
, 	Qalinlashtirilgan matn (polujirniy)
<i>, </i>	Qo'lyozma shaklidagi matn (kursiv)
<tt>, </tt>	Harflar oralig'ini kengaytirish
<u>, </u>	Tagi chizilgan matn (podcherknutiy)
<big>, </big>	Kattalashtirilgan matn
,	Kichiklashtirilgan matn
_,	Pastki indeks
[,]	Yuqori indeks

Fizik stillarni ishlatish qoidasi:

1. Matnni kiriting.
2. Matn oldiga kursorni olib kelib kerakli tegni ochuvchisini yozing.
3. Matn oxiriga kursorni olib keling.
4. Yopuvchi tegni yozing.

```
<b> Qalinlashtirilgan matn (polujirniy)</b><br />
<i> Qo'lyozma shaklidagi matn (kursiv) </i><br />
<tt> Harflar oralig'ini kengaytirish </tt><br />
<u> Tagi chizilgan matn (podcherknutiy)</u><br />
<big> KATTALASHTIRILGAN MATN</big><br />
<small> kichiklashtirilgan matn</small><br />
C<sub>n</sub><br />
ax<sup>2</sup>+bx+c=0<br />
```

Mantiqiy stillar:

Element	Vazifasi
, 	<i> tegiga analog teg.
, 	 tegiga analog teg.
<cite>, </cite>	Mazkur xujjatniga sitata keltirish.
<dfn>, </dfn>	Dastur kodi
<samp>, </samp>	Programmaning ishlashiga misol. Oldingisi kabi ishlaydi.
<kbd>, </kbd>	Klaviaturadan kiritiladigan matn
<var>, </var>	O'zgaruvchi yoki miqdor
<abbr>, </abbr>	Abbreviatura
<acronym>, </acronym>	Akronim

Mantiqiy stillar brauzerga matnni qay tartibda ekranga chop etish kerakligini bildiradi. Mantiqiy stillar fizik stillar ishlamay qoladigan holatlar uchun ham o'rinli bo'lishi mumkin: uyali telefon internetga ulanganda tegi orqali qalinlashtirilgan matn uchrab qolsa, uni o'qiy olmaydi. Bu holatda elementi kerakli natijani bera oladi.

.:C:.

<pre>, </pre> teglari formatlatgan, tayyor holga keltirilgan matndir. Uning <p> dan farqi shundaki, <pre> elementi hamma bo'sh joy va qator tashlashlarni «tushunadi». Ya'ni bu elementlar o'rtasiga matn qanday joylashtirilsa, shu holatda brauzer oynasida ko'rinadi.

<pre> elementidan jadvallar yozishda ham foydalanish mumkin:

```
<pre>
      Kurs gurux      talaba soni
      1    a        21
      1    b        20
      1    c        24
      1    d        23
</pre>
```

.:D:.

<blockquote> elementi fizik atributlar qatoriga kiradi. Bu element abzatsni vizual holda oddiy matndan ajralib turishini ta'minlaydi. Masalan:

```
<blockquote>
Falastin etakchisi Yosir Arofat xayotdan kuz yumdi.
Uning ulimi sabablari xozircha oshkor etilmayapti.
Falastin muxtoriyati axolisi uning ulimi sabablarini
Ommaga oshkor kilishlarini talab kilayapti. Frantsiya
xukumati xozircha bu xakda xech narsa deganicha yuk.
Ma'lumki,      Yosir      Arofat      Frantsiya      xarbiy
gospitallaridan biriga kasalligi tufayli xayotdan kuz
yumdi. Ulimi sabablari keltirilgan xujjatlar Yosir
Arofatning oilasiga takdim etildi.
</blockquote>
```

Natijani brauzer oynasida uzingiz kurib olasiz.

<blockquote> ishlatilganda matn oddiy shriftda oldingi stildagidek ifodalanadi. U ham <p> elementi kabi ortiqcha probellar va qatorlarni yo'q qiladi.

<address> elementi sahifa avtori haqidagi ma'lumotni o'zida mujassamlashtirgan matnni yaratish uchun ishlatiladi. Aksariyat brauzerlarda bu matn qulyozma (kursiv) holda ko'rinishga ega bo'ladi. Odatda bu element web-saxifaning oxirida ishlatilib, o'zida quyidagi ma'lumotlarni aks ettiradi:

- sahifa qachon oxirgi marta yangilangan;

- bu sahifa bilan bog'lik savollarni kim bilan muhokama qilish mumkinligi (odatda web ustasining e-mail keltiriladi);
- sahifaning URL adresi;
- kompaniya yoki tashkilotning adresi, telefon nomeri.

Masalan,

```
<address>
Oxirgi yangilanish: 25.11.2004 <br />
web master: jspi@intal.uz <br />
Jizzax shaxri, Sh.Rashidov shox kuchasi. Tel: 226-18-57
</address>
```

<ins> va elementlari biznes va ta'limga bag'ishlangan ofitsial proektlar tayyorlovchilarda ayniqsa qizikish uyg'otadi.

 elementi shunday matn uchun ishlatiladiki, u ko'rish jarayonida o'chirilgan holda ko'rinadi, <ins> elementi esa o'chirilgan matn o'rniga qo'yiladigan matn uchun ishlatiladi.

Masalan:

```
<del title="O'chiriladigan matn">Uchirish </del>
<ins>Bu qo'yiladigan matn </ins>
```

..E..

Ro'yxatni tuzishda odatda quyidagi format qo'llaniladi:

```
<ro'yxat turi >
<li>Birinchi bo'lim<G`li>
<li>Ikkinchi bo'lim <G`li>
<li>Uchinchi bo'lim <G`li>
</ro'yxat turi >
```

Ro'yxat turi nomerlangan ro'yxat va chiziqli ro'yxat bo'lishi mumkin. Nomerlangan ro'yxat , chiziqli ro'yxat esa elementi bilan beriladi. Ularning har biri elementi bilan ifodalangan bo'ladi.

```
<ol>
<li>Birinchi punkt<G`li>
<li>Ikkinchi punkt<G`li>
<li>Uchinchi punkt </li>
</ol>
<ul>
<li>Birinchi punkt<G`li>
<li>Ikkinchi punkt<G`li>
<li>Uchinchi punkt<G`li>
</ul>
```

Ko'pgina grafik brauzerlarda tartiblangan ro'yxatlarning qo'shimcha atributlarini qo'llash mumkin bo'ladi. Ularning yordamida tartiblashni ko'rinishini tanlash mumkin bo'ladi.

Teg nomi	Ro'yxat turi
<ol type="A">	Katta harflardan tuzilgan ro'yxat
<ol type="a">	Kichik harflardan tuzilgan ro'yxat

<ol type="I">	Rim (Katta) harflaridan tuzilgan ro'yxat
<ol type="i">	Rim (Kichik) harflaridan tuzilgan ro'yxat
<ol type="1">	Arab raqamlaridan tuzilgan ro'yxat
<ul type="disc">	Doiralardan tuzilgan ro'yxat
<ul type="square">	Kvadratlardan tuzilgan ro'yxat
<ul type="circle">	Aylanalardan tuzilgan ro'yxat

Bundan tashqari tartiblashni ixtiyoriy **start** atributi yordamida nomerlangan ro'yxatni boshlang'ich qiymatini tanlash mumkin bo'ladi. Masalan, ro'yxat 5 nomeridan boshlanishi kerak bo'lsa, `<ol start= "5">` deb yozish kerak bo'ladi.

value atributi ro'yxat ichida boshqatdan ro'yxat qilish imkoniyatini beradi.

.:F:.

Tarmoqda tasvirlar haqida gapirilganda aniqlangan ma'lum bir turdagi fayllar haqida gap ketadi. U sifrovoy kamera yoki skaner yordamida olingan rasm, tasvir, hattoki, grafik formatda ifodalangan matn bo'lishi ham mumkin. Bu yerda faylning aniqlangan formati muhim rol o'ynaydi. Ko'pchilik matn muharrirlari (Notepad, SimpleText) grafik fayllarni o'zlarida tasvirlay (ko'ra, ifodalay) olmaydilar. Buning uchun maxsus tasvirlarni ko'rish programmasi, grafik muharrirlar mavjud.

Tasvirlarni web-sahifaga joylashtirish juda oddiy. Buning uchun `<img />` elementi kerak bo'ladi. Shuni tushunish kerakki, rasm sahifaga joylashtirilmaydi, balki rasmga sahifadan turib murojaat (rasmga yo'l) ko'rsatiladi. Rasm fayli esa kompyuterning qattiq diskida yoki tarmoqda joylashgan bo'lishi mumkin.

Tarmoqda tasvirlarning asosan JPEG (Joint Photographic Experts Group «Dji-peg» deb o'qiladi), GIF (Graphics Interchange Format «gif» yoki «djif» deb o'qiladi) va PNG (Portable Network Graphics «ping» deb o'qiladi) kabi formatlari qo'llaniladi. Bundan tashqari PCX, TIFF va PICT kabi formatlar ham internetda uchraydi. Agar foydalanuvchida boshqa formatdagi tasvirlar bo'lib, uni web-sahifaga joylashtirmoqchi bo'lsa, u holda uni yuqoridagi formatlardan birida ifodalab olishi maqsadga muvofiqdir.

.:G:.

Web-saxifa uchun tasvirni qo'yayotganda quyidagi qoidalarga e'tibor berish lozim: birinchidan «tushlik uchun yaxshi qoshiq»ki tanlagan kabi, ya'ni tasvir o'z joyida qollanilishi kerak; ikkinchidan, tasvir faylini yuklash ko'p vaqtni olmasligi kerak.

Tasvirlar, jadvallar, grafiklar web-saxifani bezaydi, uning ko'rinishi va informativlik xususiyatini oshiradi. Faqat matndan iborat qeb-saxifa foydalanuvchini zeriktirib qo'yishi mumkin.

Web-saxifaga tasvirlarni qoyish oddiy vazifa. Murakkabi, yaxshi tasvirni hosil qilish hisoblanadi. U ko'plab xususiyatlarga ega bulishi lozim: qiziqarli, foydali, o'ziga tortuvchi va juda ham katta hajmli bo'lmasligi lozim. Tasvirlarni yaratishing ba'zi bir qoidalari:

- Tasvirlar va grafikalar berilayotgan informatsiyaga tegishli bo'lishi lozim. Sahifaning o'lchamini oshirish uchungina tasvirlarni qo'yish kerakmas. Foydalanuvchilar Internetdan ma'lumot qidiradi va faqat keraklisini o'qiydi, sizning yaxshi ko'rgan rasmingizni ko'rish u uchun qiziq emas.
- Tasvirlar tez yuklanishi kerak, bu yutuqqa olib keladi. Buning uchun esa fayl katta xajmda bo'lmasligi kerak. Shuning uchun saxifani rasmlar bilan «to'ldirib» tashlamaslik kerak.
- Oxirgi yillarda ishlab chiqarilayotgan yuqori sifatli raqamli fotoapparatlar xizmatidan foydalaning. Bu sizga kerakli format va o'lchamni tanlashda qulaylik tug'diradi.

Agar siz sahifangizga tasvir qo'yishga qaror qilgan bo'lsangiz tasvirlarni yaratishga mo'ljallangan grafik muxarrirlar xizmatidan foydalanishingiz mumkin. Ular: Paint Shop Pro, Graphic Converter, Adobe Photoshop, Adobe Image Ready, Corel Draw, Corel Xara ...

.:H:.

`<img />` elementi web-sahifaga tasvir qo'yish imkoniyatini beradi. Bunda tasvirning URL adresini ko'rsatish kerak bo'ladi. Tasvir fayli hamma fayllar saqlanayotgan kataloglarning birida yoki Internetda joylashgan bo'lishi mumkin. `<img />` elementining quyidagi ko'rinishda yoziladi:

```

```

Agar tasvir Internetdan yuklanishi rejalashtirishgan bo'lsa, u holda uning tuliq adresini yozish kerak:

```

```

Agar tasvir uzimizning katalogda joylashgan bulsa, uning adresini tulik kursatish shart emas:

```

```

```

```

Hamma Internet foydalanuvchilarda ham Internet Explorer, Netscape yoki boshqa bir grafik brauzer o'rnatilmagan bo'lishi mumkin. Ba'zi bir foydalanuvchilar Internet bilan aloqa juda sekin bo'lganligi sababli grafik holatni uchirib qo'yishlari ham mumkin. Bundan tashqari WAP turdagi uyali telefon apparatlarini, cho'ntak kompyuterlarini va ko'zi ojizlar uchun ovozli brauzerlar mavjudligini unutmaslik kerak. HTML tilida bunday holatlar uchun **alt** atributini qo'llash imkoniyati bor. Unda saxifaga quyilayotgan tasvir ekranga yuklash imkoniyati bo'lmaganda shu tasvir nima haqda ekanligini bildiruvchi matn

mavjuddir. Bu matn tasvir chiqishi kerak bo'lgan, ammo ba'zi bir sabablarga ko'ra ekranda ko'rinmay turgan joyda yoziladi. Masalan:

```

```

..I..

Matn va tasvirlarni sahifaga joylashtirishda quyidagi atributlardan foydalaniladi:

Nomi	Vazifasi
align="top"	Matn tasvirning yuqori chegarasi bilan tenglashtirib yoziladi.
align="middle"	Matn tasvirning o'rtasi bilan tenglashtirib yoziladi.
align="botom"	Matn tasvirning quyi chegarasi bilan tenglashtirilib yoziladi.

Matnlarni o'ngdan va chapdan tekislash imkoniyati ham mavjud. Buning uchun **align** atributida **left** yoki **right** yozuvini yozish kerak bo'ladi.

Qo'yilayotgan tasvirning o'lchamlarini tanlab qo'yishimiz mumkin. Buning uchun **width** va **height** elementlari yordami ishlatiladi. Berilayotgan ulcham piksellarda ifodalanadi. Masalan:

```

```

4-Mavzu. Gipermurojaat (giperssilklar) lardan foydalanish

- A) Gipermurojaatlarning ishlash printsipli. URL.
- B) <base>elementi.
- C) Murojaatlarni yaratish. Ichki va tashqi murojaatlar.
- D) Maxsus murojaatlar:
 - mailto murojaati;
 - FTP sayt murojaati;
 - Gopher serverlari;
 - Yangiliklar gruppasiga murojaatlar;
 - Telnet serverlariga murojaatlar.
- E) target atributi.


.:A:.

Gipermurojaatlar web-saytlar bo'ylab harakatning asosi hisoblanadi. Murojaatni tanlaganda (shelchok) foydalanuvchi brauzer oynasiga yuklanuvchi yoki yordamchi programmani ishga tushuruvchi qanaqadir URL bilan bog'langan adresga «tushib» qoladi. Ba'zan gipermurojaat natijasi e-mail yoki FTP serverga yo'llanma beruvchi yangi web-sahifani ochilishiga olib keladi. Foydalanuvchi murojaatni tanlab (shelchok) olishi uchun web-dizayner uni yaratishi kerak.

Gipermurojaat yaratish uchun <a> (anchor, yakor) elementidan foydalaniladi. U o'zida yo'llanma beruvchi URL adresni ko'rsatuvchi **href** atributi bilan to'ldiriladi. Shuning uchun gipermurojaatni yaratish uchun URL adresni aniqlab olish kerak.

URL bu brauzer adreslar qatorida yoziladigan web-sahifa yoki xizmatning to'liq adresidir. Ko'pincha bu adres gipermurojaatning ustiga kursor olib kelinganda brauzerning pastki qatorida ko'rsatiladi.

Gipermurojaatni yaratishda agar Internetdagi xizmat yoki adresdan foydalanmoqchi bo'lsak albatta uning to'liq adresini ko'rsatish shart. Agar o'zimizda bor bo'lgan web-sahifalardan gipermurojaatlar yaratmoqchi bo'lsak ba'zi bir ishni osonlashtiruvchi holatlar mavjud:



.:B:.

Misol.

1. Faraz qilaylik biz <http://www.jdpi.uz> asosli kataloglar strukturasini yaratmoqchimiz.
2. Bu katalogning ichida images, about, fakultet kabi kataloglar joylashtirmoqchimiz.
3. fizmat katalogida (fakultet katalogi ichida) kurs1.html sahifasini yaratdik.
4. Endi about katalogida joylashgan contact.html sahifasiga murojaat qo'ymoqchimiz. Buning uchun quyidagicha yoziladi:
../../about/contact.html
5. Afsuski, bu yozuv <http://www.jdpi.re.uz/about/contact.html> yozuvi kabi qulay bo'lmagan yozuvdir. Bunday uzun murojaatlarni yozganda turli xil xatolikka yo'l qo'yish mumkin. Buning oldini olish uchun <base> elementi ishlatiladi. Bu element yordamida asosiy baza sifatidagi katalog tanlanadi:

```
<head>  
<base href="http://www.jdpi.re.uz" />  
</head>
```

Bu element yordamida yuqoridagi murojaatni oddiygina qilib «about/contact.html» ko'rinishida yozish mumkin. <base> elementi Internetdagi adreslarga qo'yilgan murojaatlarga xalaqit bermaydi.

.:C:.

HTML hujjatda murojaatlarni yaratish uchun yakor (<a>,) elementidan foydalaniladi. Bu teglar murojaatni bildiruvchi so'zni 'oz ichiga oladi. Murojaat quyidagi ko'rinishda yoziladi:

```
<a href="Murojaat_manzili">Murojaat matni</a>
```

Demak, «Ma'lumotlar» so'zi bilan murojaat about katalogidagi about.html sahifaga murojaat qo'yish uchun quyidagicha yozish kerak bo'ladi:

```
<a href="http://www.jdpi.uz/about/about.html">Ma'lumotlar </a>  
<a href="about/about.html" >Ma'lumotlar </a>
```

Murojaatlar nomini imkoni boricha informativ qilib yozish kerak. «Bu erga bosing», «Yangi vazifa» kabi murojaat nomlarini tanlamaslik kerak. Foydalanuvchi murojaatni bosish natijasida nimaga erishishini bilmasdan turib uni bosmasligi mumkin.

Murojaatlar qo'yishda ba'zi bir holatlarga e'tibor berish kerak. Masalan siz uyingizda o'tirib ukangizga ish buyurayapsiz: «oshxonadan krujkaga suv olib kel» (har qalay borib menga falon mamkak, falon viloyat, falon shaxar yoki qishloq, falon ko'chadagi falon nomerli uydagi oshxonadan suv olib kel deyish mantiqsizlik). Bu holatda sizning qaysi mamlakat, qaysi viloyat, qaysi shaxar, qishloq, ko'chadagi qaysi uyda o'tirganligingiz muhim emas. Yoki ukangiz qaysi

oshxona deb ham suramaydi, chunki uyda faqat bitta oshxona bo'ladi. Murojaatlarni ishlatish ham xuddi shu tartibda bo'ladi. Ya'ni o'zimiz yaratgan kataloglar ichida murojaatlarni qo'yish uchun har safar murojaatni «<http://www.jdpi.uz/>» deb boshlash shart emas. Shundan keyingisini yozish etarli bo'ladi. Faqat boshqa katalogga o'tish uchun joriy katalogdan chiqish belgisi «../» dan foydalanish yetarli. Ya'ni about katalogidagi [about.html](#) sahifasidan turib service katalogidagi [service.html](#) sahifasiga murojaatni qo'yish uchun «../service/service.html» yozuvni yozish kerak. Yuqoridagi murojaatlarning hammasi tashqi murojaatlardir.

Ichki murojaatlar joriy sahifaning o'ziga qo'yiladi. Masalan biror fandagi biror mavzuga bag'ishlangan sahifa yaratayotgan bo'laylik. Mavzudagi mavjud hamma rejalarga murojaatlarni shunday qo'yish mumkinki, murojaatni tanlaganda rejadagi ma'lumotlar ekranda paydo bo'ladi. Bu ishni qilish oddiy. Ya'ni o'tilishi kerak bo'lgan hamma abzatslarni belgilab chiqish, undan keyin o'sha belgilarga yakor ([<a>](#), [](#)) ni qo'yib chiqish kerak. Misol qaraylik:

```
<h2 align="center">Reja </h2>
<p><a href="#q1">1. HTTP</a></p>
<p><a href="#q2">2. HTML</a></p>
```

Endi murojaat qilinayotgan abzatsni belgilab olamiz:

```
<p><a name=q1>HTTP bu...</p> yoki
<p><a name=q2>HTML bu...</p>
```

Bundan tashqari boshqa web-sahifadagi biror abzatsga ham murojaat o'rnatish mumkin:

```
<p>Bu <a href="../index.html#q1">savol</a><p>ga javob bering
Tasvirlarga ham gipermurojaatlarni qo'yish mumkin:
<a href="Products/product.html" ></a>
```

Tasvirlarning o'lchami har xil bo'lishi mumkin, har qanday tasvirga gipermurojaatlarni qo'yish mumkin.

.:D:.

URL shunday universal va moslashuvchanki undan Tarmoqdagi har xil murojaatlar (e-mail, FTP, Gopher, Usenet yangiliklari, Telnet sessiyalari) dan foydalanish mumkin. Bu narsa bitta sahifaning o'zida turli xil murojaatlardan foydalanib, universal sayt yaratish imskoniyatini beradi. Masalan, programmani skachat qilish bilan birga fodalanuvchi o'sha programma haqidagi yangiliklarni Usenet yangiliklar serveri murojaatidan foydalanib tanishishi mumkin.

mailto. mailto murojaatini hosil qilish oddiy. Buning uchun to'rt qismdan iborat bo'lgan murojaat qo'yiladigan elektron adresni bilish kifoya: fodalanuvchi_nomi, @ simvoli, kompyuter nomi, server nomi. mailto murojaati:

```
<p><a href="mailto:azamat@intal.uz" title="Azamat
Sattorov">Ixtiyoriy savol bilan menga murojaat
qilishingiz mumkin</a></p>
```

FTP. FTP protokoli kompyuterlar o'rtasida fayllar almashishda qo'llaniladi. FTP murojaatlarini hosil qilish uchun kerakli server nomini bilish kifoya:

```
<a href="ftp://ftp.microsoft.com/">Microsoft  
kompaniyasining FTP sayti</a>  
<a href="ftp://ftp.jspi.uz/downloads/program.zip"> Zip  
langan programma</a>
```

Ikkinchi misoldan ko'rinib turibdiki, kerakli programmani birato'la skachat qilib olish mumkin. Bunda brauzer olinayotgan programmani qattiq diskka haqiqatan ham saqlash kerak yoki kerakmasligini foydalanuvchidan so'raydi.

Gopher. Gopher matnlar yordamida ierarxik ko'rinishdagi ma'lumotlarni brauzerda ifodalashdir. Hozirgi kunda Gopher saytlari juda ham kam miqdorda ishlatiladi. Ularga bo'lgan murojaatlarni qo'yish:

```
<a href="gopher://marvel.loc.gov">Kongress kutubxonasi </a>
```

Usenet. Usenet yangiliklar gruppasi – Internet konferentsiyalar gruppasidir. Uning nomi yangiliklar bo'lgani bilan bu gruppaning asosi har bir qatnashuvchi ishtirok etishi mumkin bo'lgan savol-javoblar, diskussiyalardan iboratdir. Bu gruppaga sizning saytingizda qandaydir muammo muhokama qilinishi kerak bo'lganda murojaat qilish mumkin. Yoki foydalanuvchilar tomonidan sizga shunaqa ko'p savollar beriladiki, sizning ularga javob berishga imkoniyatingiz yo'q, shunda bu gruppaga murojaat qilishingiz mumkin, qaerdadir sizga yordam beradigan inson topiladi:

```
<a href="news:alt.tx.startrek">Starrek ga bagishlangan  
Usenet konferentsiyasi</a>
```

Telnet. Telnet serveriga murojaat – Dasturiy Ta'minot bilan ta'minlangan uzoqdagi kompyuter bilan aloqa o'rnatish uchun mo'ljallangan murojaatdir. Telnet texnologiyasini birorta ham zamonaviy brauzerlar Podderjka qilmaydi, shuning uchun bu murojaatni tanlaganda qo'shimcha programmalardan foydalanishga to'g'ri keladi:

```
<a href="telnet://mac1.fakecorp.com/">Telnet serveri  
bilan aloqa o'rnatish</a>
```

.:E:.

Murojaatlarni yaratishda ba'zi bir kichik ayyorliklardan foydalanish ham mumkin. Masalan murojaatni tanlaganda yangi oyna ochilishi uchun **target** atributidan foydalaniladi. Bu atribut qo'llanilganda natija yangi oynada hosil bo'ladi.

```
<a href="http://www.jdpi.uz" target="_blank"> JDPI  
sayti</a>
```

Agar saytdagi Hamma murojaatlar yangi oynadan ochilishini hohlasangiz uni `<base>` elementi ichida joylashtirganingiz ma'qul:

```
<base href="http://www.jdpi.uz" targer="_blank" />
```

Natijada sizning web-sahifangizdaga hamma gipermurojaatlar yangi oynada hosil bo'ladi.

5-Mavzu. Jadval yaratish asoslari. Jadvalning qo'shimcha elementlari.

- A) Jadvallar yaratish. <table> elementi. Jadval nomi.
- B) Jadval qatorlari. Jadval yacheykalari elementlari.
- C) Yacheykalar chegaralari, ranglari.
- D) Jadvalning qo'shimcha atributlari: width, border, align, cellpadding, cellspacing.
- E) Jadvalli dizayn nazariyasi. Jadvallarda rasmlar.
- F) Ichma-ich jadvallar.
- G) Qator va ustunlarni guruhlash.
- H) Ramkalar va chiziqlar.

.:A:.

Jadvalni hosil qilishning asosiy elementi <table> hisoblanadi. Ishlatilishi shart bo'lmagan element <caption> dir. <table> ning ichida <tr> – jadval qatorini bildiruvchi va <td> jadval ustunini bildiruvchi elementlar joylashadi. Ustun yoki qator sarlavhasini <th> elementi yordamida berish mumkin.

Jadvalni yaratish texnologiyasi:

1. Jadval xosil qilishni boshlash uchun <table> va </table> elementlari yoziladi.
2. Bu elementlar o'rtasiga kerakli miqdorda qatorlar soniga mos <tr> va </tr> elementlari yoziladi.
3. Endi birinchi <tr> dan so'ng kerakli miqdorda <td> va </td> elementlari yoziladi. Har bir <td> va </td> elementlari o'rtasida jadvalning mos qiymatini kiritiladi. <td> va </td> elementlari o'rniga <th> va </th> elementlarini ishlatish ham mumkin. Bu elementlar odatda faqat birinchi qator elementlarini yozishda ishlatiladi. Ko'pgina grafik brauzerlar <th> va </th> lar o'rtasidagi matnni qoraytirilgan (jirniy) kurinishda tasvirlaydilar.
4. Har bir <tr> elementida keyin yuqoridagi uchinchi qadam takrorlanadi.

Oddiy jadvalga misol:

```
<table border="1">
<caption>1 kurs talabalar aktivlari</caption>
<tr><th>1-A</th><th>1-B</th><th>1-C</th><th>1-D</th></tr>
<tr><td>Abdullaev A.</td><td>Lochinov K.</td><td>Lutfullaev K.</td><td>Rustamov N.</td></tr>
<tr><td>Karimov B.</td><td>Amrullaev D.</td><td>Jumanov I.</td><td>Xamraev O.</td></tr>
<tr><td>Razzokov M.</td><td>Begmatov L.</td><td>Turakulov I.</td><td>Turaev P.</td></tr>
</table>
```

Jadval nomini `<caption>` elementi yordamida berilishi aytib o'tildi. Bundan tashqari bu elementni IZOH sifatida ishlatish ham mumkin. Buning uchun `<caption align="bottom">` deb yozilsa jadvalning pastki qismida chiquvchi izohga aylanadi.

.:B:.

Qator elementlarida ikkita muhim atributlar mavjud: **align** va **valign**. Ular yordamida jadval yacheykasidagi matnni gorizontal va vertikal holatda ixtiyoriy joylashtirish mumkin. **align** elementi **center**, **left**, **right** (yacheykadagi matnni o'rtadan, chapdan, o'ngdan tekislash), **valign** atributi esa **top**, **bottom**, **center** (yacheykadagi matnni tepadan, pastdan, o'rtadan tekislash) kabi atributlarga ega:

```
<table border="1" align="center">
<tr align="center"><th>Yillar</th><th>Choy</th><th>Kofe</th></tr>
<tr align="left"><td>2001</td><td>35%</td><td>65%</td></tr>
<tr align="right"><td>2002</td><td>45%</td><td>55%</td></tr>
<tr
align="center"><td>2003</td><td>55%</td><td>45%</td></tr></table>
```

Ba'zi hollarda, masalan, jadval elementlari bir xil, o'xshash informatsiyalarga ega bo'lsa **valign** atributining natijasi ko'rinmay qolishi mumkin. Lekin yacheykalarda har xil hajmdagi informatsiyalar saqlanadigan bo'lsa, uning natijasini ko'rish mumkin.

Bundan tashqari `<th>` elementining `<scope>` atributi mavjud bo'lib u sarlavha qator yoki ustunga tegishli ekanligini bildiradi. Masalan:

```
<table border="1" align="center">
<tr align="center"><th
scope="row">Yillar</th><td>Choy</td><td>Kofe</td></tr>
<tr align="left"><th
scope="row">2001</td><td>35%</td><td>65%</td></tr>
<tr align="right"><th
scope="row">2002</td><td>45%</td><td>55%</td></tr>
<tr align="center"><th
scope="row">2003</td><td>55%</td><td>45%</td></tr>
</table>
```

.:C:.

Shunday hollar bo'ladiki, jadvalning bir nechta yacheykalarini (bir nechta ustunni yoki bir nechta satrni) bir xil o'lchamda ifodalashga to'g'ri keladi (bir-biriga yaqin informatsiyalar yoki jadvalning chiroyli chiqishi ...). Har qanday holatda ham `<th>` va `<td>` lar uchun: **colspan** va **rowspan** atributlari qo'llaniladi. Ulardan biri yacheykani gorizontal o'lchamini ikkinchisi vertikal o'lchamini bildiradi.

Jadval orqasidagi fonni rangini tanlash imkoniyati ham mavjuddir. Buning uchun **bgcolor** atributi ko'llaniladi:

```
<table border="1" align="center">
```

```

<tr align="center" bgcolor="red"><th >Yillar</th><th
Choy</th><th>Kofe</th></tr>
<tr align="left" bgcolor="brown"><td>2001</td><td
>35%</td><td>65%</td></tr>
<tr align="right" bgcolor="orange"><td>2002</td><td
>45%</td><td>55%</td></tr>
<tr align="center" bgcolor="yellow"><td>2003</td ><td
>55%</td><td>45%</td></tr>
</table>

```

.:D:.

<table> elementi **align** va **border** atributlaridan boshqa atributlarga ham ega. Ular quyidagilardir:


1. **width**. Jadvalning enini o'rnatadi. Ikki holatda o'lchamini berish mumkin: protsentlarda (width="50%") va piksellar (width="250") da. Bu atribut berilmaganda jadvalning ichidagi ma'lumotlar o'lchamiga qarab jadval chiziladi. O'lchamlarni piksellarda berish tavsiya etilmaydi. Chunki hamma foydalanuvchilar ham ekranning o'lchamini har doim ham bir xilda ifodalamaydilar (800x600, 1024x768 kabi o'lchamlar mavjud).
2. **border**. Jadval ramkasi qalinligini tanlash imkoniyatini beradi. O'lchamlar piksellarda belgilanadi (border="3"). Bu atribut berilmaganda jadval chegarasi oq rangda ifodalanadi (ko'rinmaydi).
3. **cellspacing**. Jadval ustunlari orasidagi masofani bildiradi. O'lchamlar piksellarda beriladi. Atribut qo'llanilmaganda 1 ga teng deb qabul qilinadi.
4. **cellpadding**. Jadval qatorlari orasidagi masofani bildiradi. O'lchamlar piksellarda beriladi. Atribut qo'llanilmaganda 1 ga teng deb qabul qilinadi.
5. **rules** va **frames**. Jadvalning ichki (rules) va tashqi (frames) chegaralari qanday chizilishi kerakligini bildiradi.

.:E:.

Jadvallar HTML standartlariga kirgandan boshlab dizaynlar yaratish professionallik darajasi bir necha marotaba ortdi. Jadval yacheykalarini boshqarib, ularga ixtiyoriy elementlarni – tasvirlarni, matnlarni, ro'yxatlarni, giper murojaatlarni qayerda kerak bo'lsa o'sha erda ishlatish imkoniyati mavjud bo'ladi. Shu tariqa butun web saxifalarni qamrab oluvchi jadvallarni yaratish yaxshi natija beradi. Yacheykalarni umumlashtirish, kerakli o'lchamgacha kengaytirib, toraytirish, ular oraliqlarini belgilash orqali yuqorida aytilgan natijaga erishish mumkin.

Umumiy holda jadvallar ustunlar va qatorlardan iborat bo'lib, ular ustida ishlash imkoniyati mavjuddir. Gazeta yoki jurnallarni varaqlab ko'plab kataklarga

bulunganligini ko'rish mumkin. Xuddi shunday qilib web-sahifalarni ham kataklarga bo'lish mumkin. Agar sahifa bir nechta bo'laklarga bo'linsa u o'quvchi tomonidan oson tushuniladi. Masalan, quyidagi ko'rinishdagi web-saxifa yaratmoqchi bo'laylik:



Buning uchun quyidagi kodni yozishga tugri keladi:

```
<table border="1" cellpadding="5" width="100%">
<!-- Yuqori menuy -->
<tr>
<td colspan="2" align="center">
<a href="sinov.htm"> Bosh sahifa | </a>
<a href="Products/product.html"> Products | </a>
<a href="Products/1/1.html"> Birinchi | </a>
<a href="Products/1/2.html"> Ikkinchi | </a>
<a href="Images/images/html"> Images | </a>
<a href="Images/table.html"> Table | </a>
</td>
</tr>
<!--Asosiy qism-->
<tr >
<td rowspan="2" valign="top">
<h1 align="center"> Jadvallar!!!</h1>
<p>Jadvallar HTML standartlariga kirgandan boshlab dizaynlar yaratish professionallik darajasi bir necha marotaba ortdi. Jadval yacheykalarini boshkarib, ularga ixtiyoriy elementlarni – tasvirlarni, matnlarni, ruyxatlarni, gipermurojaatlarni kaerda kerak bulsa usha erda ishlatish imkoniyati mavjud buladi. Shu tarika butun veb saxifalarni kamrab oluvchi jadvallarni yaratish yashi natija beradi. Yacheykalarni umumlashtirish, kerakli ulchamgacha kengaytirib, toraytirish, ular oraliklarini belgilash orkali yukorida aytilgan natijaga erishish mumkin.
<p>Umumiy xolda jadvallar ustunlar va katorlardan iborat bulib, ular ustida ishlash imkoniyati mavjuddir. Gazeta yoki jurnallarni varaklab kuplab kataklarga bulunganligini kurish mumkin. Xuddi shunday kilib veb-saxifalarni xam kataklarga bulish mumkin. Agar saxifa bir nechta bulaklarga bulinsa u ukuvchi tomonidan oson tushuniladi.
```


```

</td>
<td></td>
</tr>
<tr>
<td></td>
</tr>
</table>

```

..F..

Yuqorida aytildiki, jadvallarnig ichiga ixtiyoriy elementni joylashtirish mumkin deb. Xuddi shunday jadval ichiga jadvallarni ham joylashtirish mumkin. Agar jadval ichiga boshqa jadval joylashtirilsa, ichma-ich jadvallar deyiladi. Masalan quyidagi ko'rinishdagi jadvalni hosil qilish kerak bo'lsin:



Buning uchun quyidagi kodni yozishga to'g'ri keladi:

```

<table border="1" cellpadding="5" width="100%">
<!-- Yuqori menu -->
<tr>
<td colspan="2" align="center">
<a href="sinov.htm"> Bosh sahifa | </a>
<a href="Products/product.html"> Products | </a>
<a href="Products/1/1.html"> Birinchii | </a>
<a href="Products/1/2.html"> Ikkinchi | </a>
<a href="Images/images/html"> Images | </a>
<a href="Images/table.html"> Table | </a>
</td>
</tr>
<!-- Asosiy qism -->
<tr>
<td width="20 %">
<!-- Ikkinchi jadval -->
<table border="1">

```

```

<tr><td>Биринчи qator</td></tr>
<tr><td>Ikkinchi qator </td></tr>
<tr><td>Uchinchi qator </td></tr>
<tr><td>To'rtinchi qator </td></tr>
<tr><td>Beshinchi qator </td></tr>
</table>

```

```

<td width="80 %">

```

```

<h1 align="center"> Jadvallar!!!</h1>

```

Jadvallar HTML standartlariga kirgandan boshlab dizaynlar yaratish professionallik darajasi bir necha marotaba ortdi. Jadval yacheykalarini boshkarib, ularga ixtiyoriy elementlarni – tasvirlarni, matnlarni, ruyxatlarni, gipermurojaatlarni kaerda kerak bulsa usha erda ishlatish imkoniyati mavjud buladi. Shu tarika butun veb saxifalarni kamrab oluvchi jadvallarni yaratish yashi natija beradi. Yacheykalarni umumlashtirish, kerakli ulchamgacha kengaytirib, toraytirish, ular oraliklarini belgilash orkali yukorida aytilgan natijaga erishish mumkin.

Umumiy xolda jadvallar ustunlar va katorlardan iborat bulib, ular ustida ishlash imkoniyati mavjuddir. Gazeta yoki jurnallarni varaklab kuplab kataklarga bulinganligini kurish mumkin. Xuddi shunday kilib veb-saxifalarni xam kataklarga bulish mumkin. Agar saxifa bir nechta bulaklarga bulinsa u ukuvchi tomonidan oson tushuniladi.

```

</td>

```

```

</tr>

```

```


</table>

```

Xuddi shuningdek, uchta ustun hosil kilib, o'ng va chap ustunlarga 20% dan o'rtadagi ustunga 60 % berib, o'ng va chap ustunlar ichiga ham yuqoridagiga o'xshash jadvallar hosil qilish mumkin.

.:G.:

Qator va ustunlarni umumlashtirish yuqoridagi misolda qilingan edi:



Jadvalning **colspan** atributi qatoridagi ustunlarni umumlashtirish imkoniyatini beradi. Bu yerda colspan=«n» yozuvi nechta qatorni umumlashtirish kerak bo'lsa, n shunga teng deb yoziladi.

Jadvalning **rowspan** esa bir nechta qatorlarni umumlashtirish imkoniyatini beradi. Nechta qator umumlashtirilishi kerak bo'lsa rowspan=«n» deb yoziladi.

.:H:.

Jadvalning yana quyidagi atributlari mavjud: **frame** va **rules**. Birinchi atribut **border>0** bo'lgan holatda tashqi chegarasining qanday bo'lishi kerakligi, ikkinchi atribut esa yacheykalarni ajratuvchi chegaralar qanday bo'lishi kerakligini bildiradi.

frame atributi qabul qilishi mumkin bo'lgan qiymatlar quyidagi jadvalda keltirilgan:

Atribut nomi	Vazifasi
Void	Chegara yo'q
Above	Yuqori chegara
Below	Pastki chegara
Nsides	Chap va o'ng chegaralar yo'q
Vsides	Yuqori va pastki chegaralar yo'q
lhs	Faqat chap chegara mavjud
Rhs	Faqat ung chegara mavjud


Rules atributi qabul qilishi mumkin bo'lgan qiymatlar quyidagi jadvalda keltirilgan:

Atribut nomi	Vazifasi
None	Chizik yo'q
Groups	<thead>, <tfoot>, <tbody> elementlari ishtirok etganda faqat qatorlar oralig'ida chiziq bo'ladi, <colgroup>, <col> elementlari ishtirok etganda faqat ustunlar oralig'ida chiziqlar bo'ladi.
Rows	Chiziklar faqat qator oraliqlarida
Cols	Chiziklar faqat ustun oraliqlarida
All	Hamma chiziklar bo'ladi

Quyidagi kodni yozish orqali yuqoridagi jadvalning chiziqlarini o'zgargan holda ekranga chiqarish mumkin:

```
<table border="3" width="100%" frame="vsides" rules="rows" >  
Yuqoridagi jadvalning uzi yoziladi.  
</table>
```

Natija esa quyidagicha:



6-Mavzu. Stillar jadvali, shriftlar, maxsus belgilar. Tasvirlar va murojaatlar kartasining qo'shimcha xususiyatlari

- A) Stillar jadvali.
- B) Stillar jadvalini yaratish. <style> elementi.
- C) Maxsus sinflarni yaratish. elementi. <div> elementi.
- D) Matn stillari. Shriftlar xususiyatlari. Fon va rang.

.:A:.

HTML ning ilk versiyalarida web-sahifalarni yaratishda biroz qiyinchiliklar bor edi. Ular asosiy shrift sifatida Times, undan tashqari sarlavhalar, ro'yxatlar, tasvir va gipermurojaatlar qo'yish elementlari kabi hamma asosiy elementlar ham qo'llanilar edi. Ma'lumki Internetdan tijorat maqsadida foydalanila boshlangandan keyin Web ning ommaviyligi oshib ketdi. Dizaynerlar o'zlarining ishlanmalari bilan Internetning rivojlanishiga hissalarini qo'shdilar. Brauzerlar ishlab chiqaruvchi yirik kompaniyalar ular ehtiyojlarini qondiradigan mahsulot etkazib berishga harakat qildilar. Shunday qilib, web-sahifalarni yaratishda yangi, imkoniyati yuqorirok elementlar hosil bo'ldi. Bu elementlar qatoriga <center>, , <blink> kabi elementlarni kiritish mumkin.

 Mening saxifamga xush kelibsiz

kabi yozuvlar paydo buldi.

Ko'pgina brauzerlar elementini tushunmasdi va uning natijasini ekranga chiqarmasdi. Agar <h1> elementi ishlatilsa grafik va grafik bo'lmagan hamma brauzerlar uning sarlavha ekanligini tushunardilar. (Grafik bo'lmagan brauzerlar tasvirlarni, har-xil o'lchamdagi matnlarni ekranda ifodalay olmaydilar. Cho'ntak kompyuterlari, uyali telefon apparatlari, ...Ular elementini «tanimaydilar» lekin, <h1> va <h2> elementlarini ajrata oladilar.

Web-saxifalar qismlari bilan ishlaganda ularni informativ bo'lakka aylantirish maqsadida stillar jadvali qo'llaniladi.

Misol:

```
<p><font face= "Times New Roman" size= "+2" color= "red"> Web-  
sahifalar qismlari bilan ishlaganda ularni informativ bulakka  
aylantirish maqsadida stillar jadvali qo'llaniladi.</font></p>  
va har bir abzatsda <font>...</font> takrorlanishi kerak. Stillar jadvali yordamida  
bu ishni osongina hal qilsa bo'ladi:  
<style>  
p {font-family: Times New Roman; font-size: 16 pt; color:red}  
</style>
```

Endi qayerda <p> elementi ishlatilsa ham ular bir ko'rinishga ega va ularga ortiqcha elementini ishlatish shart emas.

Agar qachondir abzatslarning rangini yoki o'lchamini o'zgartirish kerak bo'lsa, har bir abzatsni bittalab emas, boshidagi `<style>` o'zgartiriladi xolos. Demak bu instrument web-sahifalar bilan ishlash vaqtini kamaytiradi va ularga bir xil ko'rinish ato etadi.

HTML tilidek stillar jadvali xam bir nechta spetsifikatsiyalarga ega. Biz CSS2 (Cascading Style Sheets 2) standartidan foydalanamiz. U juda ko'plab web-publikatsiyalarda qo'llanilib, hozirgi kunda hamma zamonaviy grafik brauzerlar u bilan ishlay oladilar.

`<font>` elementi **face**, **size**, **color** kabi atributlarga ega. U atributlar uz ichiga olgan matnga tegishli buladi.

```
<font face= "Arial, Helvetica" size= "+2" color="red"> Xush  
kelibsiz ...</font>
```

face atributida shriftlar ro'yxati keltiriladi. Agar foydalanuvchida birinchi shrift bo'lmasa, ikkinchisidan u bo'lmasa, uchinchisidan foydalaniladi.

size atributi 1 dan 7 gacha qiymat qabul qiladi. Bundan tashqari, oxirga o'lchamdan katta yoki kichik o'lchamda ifodalash imkoniyati ham mavjuddir. Buning uchun `size="-2"` kabi yozilib, uning natijasi eng oxirgi o'lchamdan ikki o'lcham kichik o'lchamda yoziladi.

color atributi shrift rangini bildiradi. U rang nomi (red, green, yellow, blue, ...) yoki 16 lik o'lchamda ham ifodalanishi mumkin.

`<center>` konteyneridan foydalanib sahifaning o'rtasiga matn, tasvir, gipermurojaat, ... lar kabi ixtiyoriy elementni joylashtirish mumkin, hatto multimedialarni ham.

.:B:.

Foydalanuvchi stillar jadvalini quyidagi turlarini yaratishi mumkin:

- Stillar atributi. Stillar HTML elementlar va konteynerlarining har biriga qo'llaniladi.

- Element stilini aniqlash. Stillar jadvali orqali biror bir element (`<p>`, `<h1>`, ...) ni stilini aniqlash mumkin.

- Elementlar sinfini aniqlash. Stillar jadvali orqali bir nechta element (`<p>`, `<h1>`, ...) lar stilini aniqlash mumkin.

Stillarni ikki usulda yaratish mumkin.

1. Stillar haqidagi ma'lumotlarni `<head>`, ... `</head>` sektsiyasi ichiga joylashtirish mumkin.

2. Sahifani alohida stillar aniqlanadigan fayl bilan bog'lab qo'yish mumkin.

Style atributi.

```
<a href= "index.htm" style=text-decoration: none"> Бош саҳифа  
</a>
```

yoki

```
<table>
```

```
<tr> <td style= "background: red">100</td>
```

```
<td style= "background: yellow">200</td> </tr>
```

```
</table>
```

yoki

```
<p style= "align:right; font style:italic; font-weight: bold";  
background: yellow>...</p>
```

kabi ishlatish mumkin.

Style elementi.

Agar yaratilayotgan web-saxifa 2-3 sahifadan iborat bo'lsa, style atributi ko'plab qo'llanilishiga to'g'ri keladi. Butun sahifaga bir xil stil qo'llamoqchi bo'lsak, **style** elementini qo'llash qulayroqdir:

```
<head>
```

```
<style type= "text/css">
```

```
p {font-style: italic}
```

```
</style>
```

```
</head>
```

style elementini qo'llash umumiy holda quyidagichadir:

```
<head>
```

```
<style type= "text/css">
```

```
element_nomi {xususiyati: qiymati}
```

```
</style>
```

```
</head>
```

Natijada hamma elementlar web-saxifada bir xil stilga ega bo'ladi va bir xil ifodalanadi.

Bundan tashqari bir nechta element xossalarini ham birdaniga berish mumkin:

```
<head>
```

```
<style type= "text/css">
```

```
p {font-style: italic}
```

```
h1 {color: blue}
```

```
ul {list-type: disc}
```

```
</style>
```

```
</head>
```

Bir elementning bir necha xossalarini ham birdaniga berish mumkin:

```
<head>
```

```
<style type= "text/css">
```

```
p {font-style: italic;
```

```
background: yellow;
```

```
padding-left: 12 px
```

```
}
```

```
</style>
```

```
</head>
```

tushunish osonroq bo'lishi uchun hamma xususiyatlarni alohida qatorlarga yozish tavsiya etiladi.

Agar bir necha elementga bir xil stil berish kerak bo'lsa quyidagicha yozish mumkin:

```
<head>
```

```
<style type= "text/css">
```

```
p, h1, h2, ul, ol {font-family: Arial, Helvetica}
```

```
</style>
```

```
</head>
```

Bundan tashqari butun sahifada ham har xil stillardan foydalanish mumkin:

```

<head>
<style type= "text/css">
body {font-family: Arial, Helvetica; font size: 12 pt}
ul { font-family:Times New Roman, Times; font size: 10 pt}
</style>
</head>

```

.:C:.

Maxsus sinflarni yaratish. Stillar jadvali yordamida alohida elementlarning xususiyatlarini emas, balki, maxsus sinflarni yaratish ham mumkin. Quyidagi misol bilan tanishing:

```

<head>
<style>
h1.qizil {color: red}
</style>
</head>
<body>
<h1> Oddiy sarlavha </h1>
<h1 class= "qizil"> Oddiy bo'lmagan, qizil sarlavha</h1>
</body>

```

Bu misolda **h1.qizil** selektori odatiy **h1** elementi o'rniga ishlatildi. Bu yerda ko'rsatilgan stillar faqatgina **class** atributi qo'llanilgan joyda ishlaydi. Buning afzalligi shundaki, bir elementning o'zini bir necha xil stillarda ifodalash imkoniyati paydo bo'ladi.

```

<style>
p.body {font-family: Arial, Helvetica; font-size: 15 pt}
p.ajratilgan { font-family: Times New Roman, Times; font-size: 12 pt }
</style>

```

Endi web-saxifaning tanasida abzats elementining qaysi stilini ishlatish kerak bo'lsa **class** atributi yordamida kerakli joyda ko'rsatib ketiladi.

Bundan tashqari biz universal sinflarni ham yaratishimiz mumkin. Web-sahifaning tanasida ixtiyoriy elementni unga ulab o'sha stilda ifodalashimiz mumkin bo'ladi. Masalan:

```

<style>
.kichik {font-family: Arial, Helvetica; font-size: 15 pt}
</style>

```

Endi hohlagan elementni o'sha sinf yordamida stilini berish mumkin buladi:

```

<u1 class= "kichik"> ёки <p class="kichik">...

```

** elementi.** Stillar jadvali bilan ishlash jarayonida yana bitta - **** elementidan foydalanish ham mumkin. Uni qo'llab, ixtiyoriy element stilini o'zgartirish mumkin. Boshqacha aytganda **** elementi stillari, toki yopuvchi teggacha bo'lgan mu'lumotlarga tegishli bo'ladi. Masalan:

```

<span style= " font-variant: small-caps">
Mana stili uzgartirilgan matn
</span>

```

**** elementi faqatgina matnlarni o'z ichiga olganligi sababli unga rasmlar, multimedia elementlari ... ni qo'llash mumkin emas.

Yuqorida aytilagidek, stillar jadvalini ixtiyoriy elementga qo'llash mumkin, xuddi shuningdek **** ga ham:

```
<style>
span {font-family: Arial, Helvetica; font-size: 15 pt}
</style>
```

Endi web saxifada ishlatilgan hamma **** lar yuqoridagi stilda ifolanadilar:

```
<p><span>Mana shunaka gaplar </span></p>
```

**** elementi uchun xam bir nechta sinflarni yaratish mumkin:

```
<style>
span.bir {font-family: Times New Roman, Times; font-size: 28 pt}
span.ikki { font-family: Arial, Helvetica; font-variant: small-
caps}
</style>
```

**** elementi stillar class atributi yordamida beriladi:

```
<p><span class="bir">Birinchii sinf</span>
<span class="ikki"> Ikkinchi sinf</span></p>
```

**** elementini ham universal sinflarga ulash mumkin:

```
<style>
.universal {font-family: Arial, Helvetica; font-size: 15 pt}
</style>
```

Ishlatishda:

```
<span class="universal">
```

deb yozib ishatib ketaverish mumkin.

<div> elementi. Endi stillarga tegishli bo'lgan yana bitta elementni qaraymiz. U **<div>** elementi (division) bo'lib, web-sahifalarni sektsiyalarga ajratish uchun qo'llaniladi. Bu element **** elementidan farqli ravishda o'z ichiga ixtiyoriy elementni oladi va uning ustida ixtiyoriy tahrirlash ishlarini bajarish mumkin.

<div> elementi **** elementi kabi ishlatiladi. Uning uchun jadval stillari aniqlangan bo'lishi mumkin, u **class** atributiga ega bulishi mumkin:

```
<html>
<head>
<style>
p {font-family: Arial, Helvetica; font-size: 25 pt}
</style>
</head>
<body>
<p>6-Ma'ruza. Stillar jadvali, shriftlar,maxsus belgilar.
Tasvirlar va murojaatlar kartasining kushimcha xususiyatlari
</p>
<div style="background-color: gold; font-size=15 pt; font-
family: Courier New" >
<ul type="A">
<li> Stillar jadvali. </li>
<li> Stillar jadvalini yaratish. style elementi.</li>
<li> Maxsus sinflarni yaratish. span elementi. div
elementi.</li>
<li> Matn stillari. Shriftlar xususiyatlari. Fon va rang. </li>
```

```

<li> Murojaatlar va ob'ektlar stillari. Birinchi xarf, birinchi
kator. </li>
<li> Jadval stillari. Maxsus belgilar.</li>
<li> Veb-tasvir optimallashtirish. </li>
<li> Animatsiyali tasvirlar.</li>
</ul>
</body>
</html>

```

Misoldan ko'rinib turibdiki, **<div>** elementi o'zida **<p>**, **** kabi elementlarni ham ifodalashi mumkin.

<div> elementi **align** atributiga ega bo'lishi ham mumkin. Agar

```

<div align="center">... </div>

```

yozuvi yozilsa, u holda bu element ichida qo'llanilgan hamma elementlar (abzatslar, gipermurojaatlar, ro'yxatlar, tasvirlar, ...) hammasi web-saxifaning o'rtasida ifodalanadi.

.:D:.

Stillarni jadvalini alohida faylda yozib olib keyin undan ixtiyoriy web-saxifadan murojaat orqali foydalanish ham mumkin. Buning uchun fayl_nomi.css fayli hosil qilinib unda hamma qo'llanilishi kerak bo'lgan stillar yozib qo'yiladi (odatda bloknoda bu faylni yaratish qulay):

```

/* Birinchi darajali sarlavha */
h1 { font-family: Arial, Helvetica;
      font-size: 35 pt;
      font-weight: bold;
      word-spacing: 2 pt; }

```

Endi bu narsani web-sahifaga ulash kerak bo'ladi. Buning uchun **<head>** bo'limidagi **<link>** elementidan foydalaniladi:

```

<head>
<link rel="stylesheet" href="d:/1.css" />
</head>

```

Matnlar xususiyatlari. Matn stillari yordamida matnlarni ekranga qanday tasvirlanishi va joylashishini belgilash mumkin.

Quyidagi jadvalda ba'zi-bir matn stillari keltirilgan:

Xususiyati	Qiymat turi	Misol
word-spacing	Sonli qiymat	1pt, 4em, 1in
letter-spacing	Sonli qiymat	3pt, 0.1em, +1
line-height	Sonli qiymat	14pt
Text-decoration	Aniq qiymat	Underline, line-through, box, blink
Text-transform	Aniq qiymat	Capitalize, lowercase, uppercase, none
Text-indent	Sonli qiymat yoki protsent	1in, 5%, 3em
Vertical-align	Aniq qiymat yoki	Baseline, sub, sup, top, middle, 50%

	protsent	
Text-align	Aniq qiymat	Left, rigth, center, justify

word-spacing, letter-spacing, line-height va **text** xususiyatlari biror matnning uzunligini belgilaydi va sonli qiymat qabul qiladi. Sonlar musbat va manfiy bo'lishi mumkin. O'lchov birligi sifatida piksellarni (px), dyuymnlarni (in), millimetrlarni (mm), santimetrlarni (cm), punktlarni (pt), joriy matnning balandligini (em), va joriy shrift «x» harfining balandligini (ex) olish mumkin.

Text-decoration faqat yuqoridagi qiymatlarni qabul qilib, shriftni tuzilishini o'zgartiradi.

Vertical-align va **Text-align** web-dizaynerga matnni xujjatda vertikal yoki gorizontal holda joylashtirish imkoniyatini beradi.

Shriftlar xususiyatlari. elementinini ishlatmasdan stillar jadvalini qo'llab ham shriftning xususiyatlarini (shriftlar oilasi, o'lchami, rangi, ...) tanlash mumkin. Buning uchun avval <body> uchun xususiyatni aniqlab olib, keyin ma'lum bir elementlar uchun stillar xususiyatlari beriladi. Quyidagi jadvalda ba'zi bir xususiyatlar berilgan:

Xususiyati	Qiymat turi	Misol
Font-family	Shrift nomi	Helvetica, Arial, Times
Font-size	Son/protsent	12pt, +1, 120%
Font-weight	Son/qiymat	Normal, bold, bolder, 100, 900
Font-style	Stil nomi	Italic, obleque, normal
Font-variant	Stil nomi	Normal, small-caps
Font	Kombinatsiya	12pt Serif
Color	Rang nomi/16 lik qiymat	Red, green, #FF00AA

Font-family elementida shriftlar oilasi beriladi. Bu erda umumiy shriftlar nomlari keltirilishi tavsiya etiladi chunki, bizda mavjud ba'zi bir standart bo'lmagan shriftlar har doim ham boshkalarda bo'lmasligi mumkin. Misol:

```
<style type = "text/css">
  p.standart {font-family: Helvetica, Arial, Sans Serif}
</style>
```

Font-size ni protsentlarda, punktlarda yoki aniq qiymatlarda (larger, smaller) ifodalash mumkin. **Font-weight** shriftning qalinligini bildirib 100 dan 900 gacha qiymat qabul qiladi (standart alinlik 400 xisoblanadi). **Font-style** qiyshayish darajasini bildiradi va **Italic, obleque, normal** iymatlardan birini qabul.

Font-variant faqatgina oddiy yozuv (**normal**) va kichik bosh harflar (**small-caps**) dan bir-biriga o'tish uchun xizmat qiladi.

 xususiyati yuqorida aytilgan hamma xususiyatlarni o'zida mujassam eta oladi. Muammo shundaki har-xil brauzerlar uning natijasini har-xil ko'rinishda ifolalashlari mumkin. Shuning uchun hamma matn xususiyatlarini alohida-alohida o'rnatgan ma'qul.

Fon va rang. <body> tegida fon xususiyatini o'rnatish mumkin, bu holatda butun web-saxifaga tegishli bo'lib qoladi. Quyidagi jadvalda fonning hamma xususiyatlari keltirilgan:

Xususiyati	Qiymat turi	Misol
backgroun-color	Rang nomi/16 lik qiymat	White, blue, #0000FF
backgroun-image	url()	url(image.gif), url(http://www.jspi.re.uz/tittle.jpg)
backgroun-repeat	Rejim nomi	Repeat, repeat-x, repeat-y, no-repeat
backgroun-attachment	Rejim nomi	Scroll, fixed
backgroun-position	Yo'nalish yoki protsent	Top, left, center, 20%, 65%
backgroun	Kombinatsiya	White ul(image.gif) repeat-x fixed

Ranglarning qabul qilishi mumkin bo'lgan qiymatlari: black, red, maroon, white, green, olive, lime, aqua, teal, blue, navy, yellow, brown, gray, silver, orange, purple, fuchsia va hokazo.

7-Mavzu. Freymmlar yordamida sayt yaratish.

- A) Freymmlar haqida.
- B) Freymmlar qo'shish. <frameset> elementi. <frame> va <noframes>.
- C) <frame /> parametrlari. Ichma-ich freymmlar.
- D) Freymmlarning qo'shimcha imkoniyatlari.
- E) <iframe> elementi.

.:A:.

Uzoq vaqtlar web-sahifalar yaratuvchilari butun sayt hattoki portal sahifalari bo'ylab harakatning umumiy sistemasini topishga harakat qildilar. Standart instimentariyni qo'llash uchun bir xil menyuni har bir sahifaga nusxasini qo'yishga to'g'ri kelardi. HTML Frames spetsifikatsiyasini rivojlanishi natijasida brauzer oynasini bir nechta oynalarga ajratib, ularga bir-biridan mustaqil sahifalarni qo'yish imkoniyati paydo bo'ldi.

Freymmlar kirib kelishi bilan bog'liq eng asosiy muammo har doimdagidek brauzerlarning o'zaro tug'ri kelmasligi bo'ldi. Ko'pgina brauzerlar freymmlarni «tanimasdi». Freymmlar spetsifikatsiyasi HTML standartlariga 1997 yilda yaratilgan HTML 3.2 versiyasidan boshlab qo'llanila boshlandi. U vaqtlarda freymmlar Nestcape foydalanuvchilari orasida ommaviylashgan edi. HTML 4.0 dan boshlab brauzerlar freymmlarni normal «tushuna» boshladilar.

Freymmlar bitta brauzer oynasiga bir nechta turli URL adreslarga ega bo'lgan mustaqil web-sahifalarni yuklash imkoniyatini beradi. Bu vazifani bajarish juda oddiy. Buning uchun <body> elementi <frameset> elementi bilan almashtiriladi. Bu konteynor sahifada freymmlar hosil kiluvchi <frame /> elementi uchun mo'ljallangan. Freymmlar ichida qaysi freymga chiqishi ko'rsatilgan alohida gipermurojaatlar bo'lishi mumkin.

.:B:.

Demak sahifada freymmlar hosil qilish uchun ikkita <frameset> va <frame /> elementlari ishlatilar ekan:

```
<html>
<head>
</head>
<frameset>
</frameset>
</html>
```

<frameset> elementi ikkita **cols** va **rows** atributlariga ega. Ular yordamida <frameset> sahifalarni bir nechta qatorlar yoki ustunlardan iborat freymmlarga ajratadi:

```
<frameset cols= "25%, 75%">
```

</frameset>

Natijada web-sahifa ikkita ustunli freymga ajraydi.

<frameset> elementi yordamida sahifada hohlagancha ustun va qator freymmlarini hosil qilish mumkin. Ularning o'lchamini doim ham protsentlarda ifodalash shart emas. O'lchov birligi sifatida piksellarni ham olish mumkin :

<frameset rows= "10, 200, 300, 100">

Natijada to'rtta qator freymmlari hosil bo'ladi.

Bundan tashqari o'lchamlarni ifodalashda «*» ni ham ishlatish mumkin. Bunda «*» ga qancha o'lcham qolsa hammasi tegishli bo'ladi:

<frameset cols= "200, 300, *">

Protsentlarda ifodalangan o'lchamlar uchun ham «*» ni ishlatish mumkin:

<frameset rows= "25%, 35%, *">

<frameset> konteynori bir o'zi hech narsa qila olmaydi. Ekranda freymmlar hosil bo'lishi uchun <frame /> va <noframes> elementlari ishlatilishi kerak. Birinchisi ekranda freymmlar hosil bo'lishi uchun ishlatilasa, ikkinchisi aksincha freymmlarni olib tashlash uchun ishlatiladi:

<frameset>

<noframes>

<p> Uzoq vaqtlar web-sahifalar yaratuvchilari butun sayt hattoki portal sahifalari bo'ylab harakatning umumiy sistemasini topishga harakat qildilar. Standart instimentariyni qo'llash uchun bir xil menyuni har bir sahifaga nusxasini qo'yishga to'g'ri kelardi. HTML Frames spetsifikatsiyasini rivojlanishi natijasida brauzer oynasini bir nechta oynalarga ajratib, ularga bir-biridan mustaqil sahifalarni qo'yish imkoniyati paydo bo'ldi.</p>

</noframes>

</frameset>

<noframes> elementi yordamida umuman freymmlarsiz sahifa yaratish ham mumkin.

<frame /> elementiga misol:

<frameset>

<frame src= "index.html" />

<frame src= "viewer.html" />

</frameset>

<frame /> elementi yordamida biror bir freymga itiyoriy web-sahifani chaqirish uchun ishlatiladi. Sahifaning URL adresi **src** atributi yordamida beriladi. Adreslar gipermurojaatlardagidek to'liq yoki qisqartirilgan holda berilishi mumkin.

Biror bir freymmlarga yangi sahifalarning yuklanishi ikki bosqichdan iborat bo'ladi:

- ❖ Birinchidan, freymga aniq nom berilishi kerak;
- ❖ Ikkinchidan, ko'rsatilgan freymga yuklanishi uchun yuqorida berilgan nomdan foydalanish kerak.

Masalan:

<frameset>

<frame src= "index.html" />

<frame src= "viewer.html" name= "doc_viewer">

</frameset>

Birinchi freym nomlanmadi, chunki unga yangi web-sahifa yuklanishi shart emas. Ikkinchi freymga yangi web-sahifani yuklash uchun odatdagi **<a>** elementining **target** atributi ishlatiladi:

```
<a href= "story.html" target= "doc_viewer">Тарих</a>
```

Endi chap tomondagi gipermurojaat natijasi yangi oynaga emas, o'ng tomondagi freymga chiqadi. **<a>** elementiga ixtiyoriy URL adresni qo'yish mumkin:

```
<a href= http://www.yandex.ru target= "doc_viewer">Yandex  
qidiruv sistemasi </a>
```

.:C:.

<frame /> elementi quyidagi parametrlarga ega:

- ❖ **Noresize**. Freymlar o'lchamini o'zgartirishni man qiladi.
- ❖ **Frameborder**. Faqat 1 yoki 0 qiymatlardan bittasini qabul qiladi. Agar 1 qiymatni qabul qilsa, freym chegarasi majud, 0 qiymat qabul qilsa, freym chegarasi yo'q.
- ❖ **Scrolling**. **yes**, **no** yoki **auto** qiymatlaridan faqat bittasini qabul qila oladi. **Yes** – prokrutka bor, **no** – prokturka yo'q, **auto** – agar ehtiyoj bo'lsagina prokrutka quyiladi.
- ❖ **marginwidth**, **marginheight** – bu atributlar gorizontal va vertikal maydonlarga mo'ljallangan.
- ❖ **Longdesc**. Mazkur freym haqidagi ma'lumotlar saqlanuvchi URL adresni o'zida saqlaydi.

Ichma-ich freymlar. Agar ekranda gorizontal va vertikal freymnlarni birdaniga hosil qilmoqchi bo'lsak, ichma-ich freymlardan foydalanishimiz mumkin. Masalan tepada to'liq satrli freym, uning pastida ikki ustunga ajratilgan freymnlarni hosil qilaylik. Buning uchun ikki ishni qilish kerak. Birinchidan bizga ikki qatorli freym kerak bo'ladi. Ikkinchidan ikkinchi qator freymni ikki ustunga ajratish kerak:

```
<frameset rows= "100, *">  
  <frame src= "banner.html" scrolling= "no" norisize =  
    "noresize" />  
  <frameset cols= "25%, 75%">  
    <frame src= "index.html" />  
    <frame src= "viewer.html" marginwidth= "5" marginheight=  
      "5"/>  
</frameset>
```

.:D:.

Freymnlarni yuqorida keltirilganlardan boshqa qo'shimcha imkoniyatlari ham mavjud. Masalan, biror freymga sahifani yuklash yoki freymnlarni yangi oynaga ochish.

Target atributi quyidagi qabul qilishi mumkin:

- ❖ **_self**. Murojaat qo'yilgan freym o'zida hujjat ochilishini ta'minlaydi.

- ❖ **_top**. Bu qiymatni qo'llab, shu oynaning o'zida freymlarni o'chirib hujjatni yuklash mumkin.
- ❖ **_blank**. Hujjatni yangi oynada ochilishini ta'minlaydi.

.:E:.

`<iframe>` elementi `<frame />` elementi bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'langan, lekin `<frameset>` elementiga umuman aloqasi yo'q. `<iframe>` elementi HTML hujjatda ichki mustaqil freymlar yaratish imkoniyatini beradi. `<iframe>` elementi ixtiyoriy sahifada `<body>` ning ichiga joylashishi mumkin. Uning vazifasi sahifada boshqa bir hujjatni `<frame />` `<frameset>` da ko'rsatgani kabi ko'rsatishdir.

Misol:

```
<iframe src="jad.html" width="300" height="300" frameborder="0"
scrolling="auto">
```

Mana sizga freym!!!

```
</iframe>
```

`<iframe>` elementi `<frame />` elementining **frameborder**, **marginwidth**, **marginheight**, **scrolling** kabi hamma atributlarini qabul qilishi mumkin. Bulardan tashqari uning **width** va **height** atributlari ham mavjudki, ular qo'yilayotgan freymning bo'yi va eni o'lchamlarini piksellarda belgilaydi. Yana `<iframe>` elementi **align** atributiga ega bo'lib, u odatdagidek, **right** va **left** qiymatlar qabul qiladi. `<iframe>` elementining yana bir xususiyati shundaki u o'z ichiga olgan matnni qachonki foydalanuvchi brauzeri ichki freymlarni qo'llamasagina ekranga chiqaradi.

8-Mavzu. Multimediya elementlari va JAVA dasturlarini qo'shish

- A) Multimedialar haqida.
- B) Multimedia fayllari formatlari.
- C) Multimedia elementlarini web-sahifalarga qo'yish.
- D) JAVA appletlar.

.:A:.

Vaqt o'tishi bilan «O'rgimchak to'ri» faqatgina matn va tasvirlar almashish uchungina emas, balki, video, tovush, harakatlar va shunga o'xshash multimedia elementlarini almashish uchun ham xizmat qila boshladi.

Multimedia – kompyuterda tayyorlangan informatsiya bo'lib, bir turdan ko'p bo'lgan informatsiyalarni o'zida saqlaydi. Masalan: matn va tovush, tasvir va tovush va hokazo. Hatto tovushsiz videoroliklarni informatsion texnologiyalarga jalb qilish ham «multimediali prezentatsiya» lar deb atala boshlandi.

Internetda uchraydigan multimedialar – videolar, tovushlar, animatsiyalar misol bo'ladi. Ularni to'xtatish, boshidan qo'yish, biroz «o'tkazish» mumkin. Ba'zi multimedia elementlar o'tish tugmasi kabi interaktiv xarakterdagi tugmalarga ega bo'lishi ham mumkin. Qisqasi multimedia elementar bizga yaxshi tanish bo'lgan audio va video roliklarni eslatadi.

Web-dizayner multimedialarni qo'llashi uchun quyidagi uch narsalarni bilishi kerak:

- ❖ sahifada multimedia elementlarni qo'llash sababini;
- ❖ qo'llanilayotgan multimedia elementlarining internetda ommaviyligini;
- ❖ multimedia elementni qo'llash turini. Ya'ni sahifa ochilganda multimedialar ishga tushishi yoki alohida oynaga ochilishi,...

.:B:.

Quyidagi jadvalda Internetda qo'llaniladigan asosiy multimedia fayllari formatlari keltirilgan:

Fayl formati	Fayl turi	Kengaytmasi
Sun Systems sound	Sifrovoy audio	.au
Windows sound	Sifrovoy audio	.wav
Audio Interchange	Sifrovoy audio	.aiff, .aifc
MPEG/MP3 audio	Sifrovoy audio	.mpg, .mp3
MIDI audio	Tovush boshqaruv komandalari	.mid, .midi
RealMedia	Audio/video potok	.ra, .rm, .ram

CompuServe GIF	Grafika	.gif
JPEG (метод сжатия)	Grafika	.jpg, .jpeg
TIFF	Grafika	.tif, .tiff
Windows bitmap	Grafika	.bmp
Macintosh picture	Grafika	.pict
Fractal animations	Animatsiya	.fli, .flc
MPEG video	Video	.mpg, .mpeg
QuickTime	Video	.mov, .qt
Microsoft video	Video	.avi
Digital video (формат DV)	Video	.dv
Macromedia Shockwave Director	Prezentatsiya	.scr, .dir
Macromedia Shockwave Flash	Animatsiya	.swf
Microsoft Excel documents	Elektron jadval ma'lumotlari	.xl, .xls
Microsoft Word documents	Formatlangan matn	.doc

Yuqorida **Microsoft Excel** va **Microsoft Word** kabi kutilmagan formatlar ham keltirildi. Bular albatta multimedia emas, lekin shu bilan birga oddiy rasmlar bilan berilgan matn ham emas. Ba'zida **Microsoft Excel** jadvallari va **Microsoft Word** hujjatlari Internetda **Microsoft** kompaniyasining maxsus dasturlari bilan birgalikda beriladi. Undan tashqari ko'pchilik foydalanuvchilar **Windows** operatsion sistemasidan foydalanadilar. Xususiyl hollarda **Microsoft Word** hujjatlari Internetdan keyinchalik tahrirlash yoki pechatga chiqarish uchun jo'natilishi mumkin.

Aytish mumkinki, yuqoridagi formatlarning hammasini birdaniga «podderjka» qiladigan brauzer yo'q !

.:C:.

Gipermedia murojaati oddiy gipermurojaatlardan unchalik ham farqlanmaydi. Faqat bitta farqi bor u ham bo'lsa, gipermurojaatlardagidek qanaqadir hujjat yoki web-sahifani emas multimedia faylini ko'rsatish kerak. Brauzer uni «tanishi» va kerakli dastur orqali uni ochishi kerak.

Gipermedia murojaatlar boshqa gipermurojaatlardagidek ko'rinishga ega. Faqat shuni unutmaslik kerakki, **HTML** faylning **URL** adresini emas, boshqa turdagi multimedia faylni ko'rsatish kerak:

```
<a href="D:\Music\клип\янгил\Zero.avi">Zeroning klipini ko'ring</a>
```

Foydalanuvchi qachonki murojaatni tanlasa fayl uning kompyuteriga yuklanadi. Shundan keyin brauzer kerakli dastur yordamida uni ochishga harakat qiladi. Agar kerakli dastur o'rnatilmagan bo'lsa, uni kelajakda ishlatish uchun saqlab qo'yish mumkin.

Ikkita maslahat:

Birinchidan gipermedia murojaatida faylning taxminiy o'lchamini ko'rsating. Foydalanuvchi o'zining bo'sh vaqtini shu multimedia faylini ochib ko'rish uchun sarflasa arziydimi yoki yo'qmi buni bilishi kerak.

Ikkinchidan faylni serverga joylashtirish vaqtida serverdan ruxsat olish kerak. Gap faqatgina avtorlik xuquqi haqida ketayotgani yo'q, katta hajmdagi fayllarni Internet orqali jo'natish server ishini sekinlashtiradi. Trafik oshishi bilan server qo'shimcha haq talab qilishi mumkin.

Brauzer qanday qilib multimedia faylini ishga tushira oladi? Har qaysi brauzer o'zida fayl formatlari va dasturlari haqidagi ma'lumotni saqlaydi. Va Internetdagi gipermurojaat oddiy **HTML** hujjatga qo'yilmaganini bilgandan so'ng o'zidagi ma'lumotlar bo'yicha fayl formatini aniqlashga harakat qiladi. Qachonki tanish fayl formati bo'lsa, o'sha holatda uni kerakli dasturga jo'natib, ishga tushishini ta'minlaydi.

Ko'pchilik brauzerlar «tushuna» oladigan fayl formatlari:

- ❖ Grafiklar, masalan, .gif, .jpeg, .png
- ❖ Tovushlar, masalan, .midi, .wav
- ❖ .txt kengaytmali oddiy matn.

Multimedia elementlarni sahifaga qo'kyishning yana bir usuli mavjud. Bu bizga **** elementini eslatadi. **Netscape** kompaniyasi tomonidan yaratilgan va keng tarqalgan **<embed>** elementi yordamida yuqoridagi vazifani bajarish mumkin.

Umuman **<embed>** elementi **** elementi kabi ishlaydi. U o'zida element nomi, faylning **URL** adresi va agar kerak bo'lsa, o'lchamlarini saqlashi mumkin:

```
<embed src="D:\Music\клип\янти\Saxar.avi" width="300"
height="300" autoplay="0" align="left">
</embed>
```

<embed> elementi uchun QuickTime formati parametrlari:

Atribut	Tavsiya etiladigan qiymat	Vazifasi
Autoplay	True	Videoni avtomatik ishga tushiradi
Controller	False	Boshqarish panelini yashiradi
Loop	True	Videoni sikllarga bo'ladi
Playeveryframe	True	Kadrlarni tezlashtirib o'tkazishni ta'qiqlaydi
Volume	0-256	Tovush baland-pastligini belgilaydi. 256 eng yuqori qiymat
Hidden	True	Videokatorlarni yashiradi
Href	url	Gipermurojaat sifatida videoni ko'rsatadigan yangi oynani hosil qiladi.

<embed> elementi uchun **Windows Media** formati parametrlari:

Atribut	Vazifasi
---------	----------

Showcontrols	0 – boshqarish panelini yashiradi, qolgan ixtiyoriy qiymatda boshqarish paneli ko'rinadi.
Autosize	0 – kadr o'lchamini avtomatik aniqlash yo'q.
Showstatusbar	0 – pastki panel ko'rinmaydi.
Autostart	0 – video avtomatik ishga tushirishni taqiqlaydi.

.:D:.

Qisqa qilib aytganda **JAVA** bu – ko'pgina zamonaviy programmalashtirish tillari bilan raqobatlasha oladigan programmalashtirish tilidir. Uning boshqa programmalashtirish tillaridan farqi u bevosita **Internet** bilan ishlaydigan dasturlar yaratishga mo'ljallangan. U ayniqsa tarmoqlararo ishlaydigan programmalar yaratuvchilar orasida ayniqsa ommaviylashgan.

JAVA dasturlarining ko'p qismini kichkinagina tarmoqlararo ishlaydigan programmalaridir. Ularning kichik o'lchamlari **Internet** bilan ishlashni optimallashtirishga mo'ljallangan. Ya'ni qancha kam hajmli ma'lumot uzatilsa, saytni, programmani yoki rasmlarni yuklash uchun shuncha kam vaqt ketadi. Shu tariqa appletlar hosil bo'ladi. Bu programmalashtirish tilida ixtiyoriy programmalarini tuzish mumkin. **JAVA** dasturi yaratuvchisi **Sun** kompaniyasining saytidan ba'zi bir appletlarni olish mumkin: <http://www.sun.com>.

Internetdan ko'plab appletlarni bepul olish mumkin:

http://www.yahoo.com/Computers_and_Internet/Programming_Languages/Java/Applets

<http://java.sun.com/openstudio/>

va xokazo.

Mana appletlarni web-sahifaga yuklash misoli:

```
<object codetype= "application/java"
classid= "java:myapplet.class" standby= "Апплет юкляш" width=
400 height=350>
</object>
```

Bu erdagi **myapplet.class** yuklanayotgan appletning nomi va u web-sahifa yuklanayotgan katalogda joylashgan. Bundan tashqari appletning to'liq **URL** adresini ifodalovchi **codebase** atributini ham ishlatish mumkin:

```
<object codetype= "application/java" codebase=
"http://www.jdpi.uz/applets/"
classid= "java:myapplet.class" standby= "Апплет юкляш" width=
400 height=350>
</object>
```

Agar brauzer appletlar bilan ishlay olsa (hamma abauzerlar ham appletlar bilan ishlash imkoniyatiga ega emas) boshqa elementlar kabi appletlar ekranga chiqadi va o'z vazifasini bajaradi.

9-Mavzu. Sayt stillari: ishlab chiqish, imkoniyat berish, globallashtirish.

- A) Sayt stillari.
- B) Stillar jadvali va ruxsat.
- C) Globallashtirish.

.:A:.

Stillar jadvali haqida 6-mavzuda tanishgan edik, lekin uni oxirigacha tadqiq etmagandik. Agar siz sayt yaratmoqchi va unga professional tashqi ko'rinish bermoqchi bo'lsangiz, birinchi navbatda butun sayt yagona stilini ishlab chiqish kerak bo'ladi. Agar siz sayt yaratishdan oldinroq uning stili haqida bosh qotirsangiz, siz kelajakda uchrashi mumkin bo'lgan ko'plab muammolardan holi bo'lishingiz mumkin.

Agar sizda sayt tayyor bo'lsa, u holda unga stillar jadvalini qo'shish mumkin. Agar siz saytingiz uchun yagona stilni yaratgan bo'lsangiz har safar **** ga o'xshagan elementlarni ishlatish nima uchun kerak? Undan tashqari saytni tahrirlashga to'g'ri kelsa saytning tanasini tashkil qiluvchi o'nlab web-sahifalarining har birini emas, bitta faylda saqlanuvchi stillar faylini tahrirlash juda ham oson bo'ladi.

Ishni bazaviy saytni yaratishdan boshlaymiz. Tasavvur qilaylik u yaratilgan. Bizning maqsadimiz uni stillar jadvali yordamida o'zgartirish. Bazaviy saytda biz kelajakda ishlatishimiz mumkin bo'lgan hamma elementlarni ishlatishimiz kerak. Chunki biz yagona stilni yaratishimiz uchun hamma elementlar stilini o'zimiz hohlagan ko'rinishga keltirishimiz kerak.

Bizning maqsadimiz kam mehnat sarflab bir ko'rinishli sayt yaratishga erishishdir. Keyin, masalan stillar faylidagi birinchi darajali sarlavhani stilini o'zgartirib, butun saytdagi hamma birinchi darajali sarlavhalar o'zgarishini ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Hamma o'zgarishlar avtomatik amalga oshiriladi.

Quyidagi kodni qaraylik:

```
<html>
<head>
<title>9-mavzu</title>
</head>
<body>
<h1> <font face="Arial, Helvetica">9-Ma'ruza.      Sayt stillari:
ishlab chiqish, imkoniyat berish, globallashtirish.</font></h1>
<h2> <font face="Courier New">A) Sayt stillari. <br />
B) Stillar jadvali va ruxsat.<br />
C) Globallashtirish. </font></h2>
<h1 align="center">.:A:.</h1>
<p><font face="Times, Timew New Roman" size="3pt"> Stillar
jadvali xakida 6-mavzuda tanishgan edik, lekin uni oxirigacha
tadqiq etmagandik. Agar siz sayt yaratmokchiva unga professional
```

tashki kurinish bermokchi bulsangiz, birinchi navbatda butun sayt yagona stilini ishlab chikish kerak buladi. Agar siz sayt yaratishdan oldinrok uning stili xakida bosh kotirsangiz, siz kelajakda uchrashi mumkin bulgan kuplab muammolardan xoli bulishingiz mumkin. </p>

</body>

</html>

Ko'rinib turgandagidek **HTML** kodni namunali deb bo'lmaydi. Albatta brauzer oynasida bu narsa bilinmaydi. Birinchidan biz qiladigan vazifa hamma sahifalarda bir xil elementlar uchun takrorlanadigan va uzun kodlarni yozmaslik, ya'ni stillar jadvalidan foydaanish maqsadimiz ham shundan iborat.

Web-sahifalar uchun stillar jadvalini yatarish – elementlarning qaysi ko'rinishi yaxshiroq va ularga qanday ko'rinish chiroyliroq chiqishini tasavvur qilib unga kod yozishdir. Har bir element uchun bir nechtdan stillar yaratish mumkin. Masalan <p> elementining o'ziga 5-6 xil stillar berish va undan web-sahifalarda foydalanish mumkin. Agar biz web-sahifalarning sodda bo'lishini istasak, u holda stillar jadvali o'z-o'zidan murakkablashadi.

Endi yukoridagi misolning stillarini stillar javdali orqali yozamiz:

```
hr {width: 75%}
```

```
h1 {font-family: Arial, Helvetica}
```

```
h2 {font-family: Courier New}
```

```
p {font-family: Times, Times New Roman;
```

```
font-size: 12pt;}
```

Ko'rinib turibdiki, stillarni o'qish va tushunish osonroq. Stillar jadvalini saqlab (file_name.css) web sahifa bilan bog'lagandan so'ng web-sahifaning kodi quyidagi ko'rinishga keldi:

```
<html>
```

```
<head>
```

```
<title>9-mavzu</title>
```

```
<link rel="stylesheet" href="d:/1.css" />
```

```
</head>
```

```
<body>
```

```
<hr />
```

```
<h1> 9-Ma'ruza.      Sayt stillari: ishlab chikish, imkoniyat  
berish, globallashtirish.</h1>
```

```
<h2> A) Сайт стиллари.<br />
```

```
B) Stillar jadvali va ruxsat.<br />
```

```
C) Globallashtirish. </h2>
```

```
<hr />
```

```
<h1 align="center">.:A:.</h1>
```

```
<p> Stillar jadvali xakida 6-mavzuda tanishgan edik, lekin uni  
oxirigacha tadkik etmagandik. Agar siz sayt yaratmokchiva unga  
professional tashki kurinish bermokchi bulsangiz, birinchi  
navbatda butun sayt yagona stilini ishlab chikish kerak buladi.  
Agar siz sayt yaratishdan oldinrok uning stili xakida bosh  
kotirsangiz, siz kelajakda uchrashi mumkin bulgan kuplab  
muammolardar xoli bulishingiz mumkin.</p>
```

```
</body>
```

```
</html>
```

Natija birinchi variantdagi kabi bo'lib, hech narsa o'zgarmaganligini ko'ramiz. Faqatgina yozgan kod toza bo'ldi xolos. Stillar jadvalining afzalligi shundaki, yuqoridagi stil butun web-sahifaga qo'llanilishi mumkin.

.:B.:

CSS2 standartning ba'zi bir elementlari:

Xususiyati	Qiymati	Vazifasi
Azimuth	Left, center-left, center, center-right, right ёки бурчак (-360^0 дан то 360^0)	Tinglovchi joylashgan joyga nisbatan burchakni ifodalaydi.
Cue-after	url	Matn o'qilganidan keyin berilgan URL adresdagi tovushli faylni ishga tushiradi
Cue before	url	Matn o'qilganiga qadar berilgan URL adresdagi tovushli faylni ishga tushiradi
Elevation	Below, level, above, ёки бурчак (-360^0 дан то 360^0)	Tovush chiqaruvchi qurilma joylashgan vertikal burchakni ifodalaydi
Pause-after	Секундлар ёки миллисекундлар	Element «gapirib» bo'lgandan keyingi pauza
Pause-before	Секундлар ёки миллисекундлар	Element «gapirguncha» бщълган pauza
Pause	Секундлар ёки миллисекундлар	Element «gapirguncha» va «gapirib» бщългandan keyingi pauza
Pitch	Low, medium, high ёки частота (Гц)	Tovush chiqish balandligi
Pitch-range	0, 50 ёки бошка сонли киймат	Chastota kattaligi: 0–monoton, 50 – normal
Play-during	Url	Fonda yangrovchi tovush adresi
Speak	None, normal, spell-out	Gapirish turi
Speak-numeral	Digits, continuous	Sonlarni aytish turi: ketma ket sifralar yoki hamma sonlar birdaniga
Speak-punctuation	None, code	“code” shuni bildiradiki, hamma tinish belgilarini aytish kerak (nuqta, vergul, ...)
Speak-rate	Slow, medium, fast, бир минутдаги сузлар сони	Gapirish tezligi

Voice-family	Male, female, Zervox, Princess, child	«Kimning» ovozi bilan gapirish (bu holatda shriftlar kabi tovushlar ham kompyuterga o'rnatilgan bo'lishi kerak.)
Volume	Silent, soft, medium, loud	Tovush balandligi

Bu xususiyatlar boshqalari kabi stillar aniqlanadigan joyda ifodalanishi mumkin. Masalan:

```
h1 {volume: loud; voice-family: Princess; pause: 1; speak-numerals: digits}
```

```
p {volume: loud; voice-family: male; speak-punctuation: none}
```

Shunisi qiziqki, bularning ko'pchiligi bizga odatdagi elementlar xususiyatlarini eslatadi. Masalan **voice-family** – **font-family** ning analogidir. Shriftlar kabi tovushlar (maxsus formatda) kompyuterda bo'lishi kerak.

.:C:.

Saytni rejalashtirishdagi yana bir kerakli qadamlardan biri sayt qaysi millat tillarini «podderjka» qilishini aniqlashdir. Buning uchun **lang** atributi va **<q>** elementidan foydalansa bo'ladi.

lang atributi ko'pgina elementlarda qo'llanilishi mumkin. Bu ularning milliy tilini aniqlaydi. Masalan:

```
<p lang="ru"> Этот абзац написан по-русски </p>
```

lang atributi brauzerga elementni qanday ifodalash kerakligi (agar brauzer tovushli bo'lsa) yoki qidiruv sistemalariga saytlarni klassifikatsiyaga ajratishga yordam beradi. **lang** atributining qabul qilishi mumkin bo'lgan ba'zi bir qiymatlari: ar–arab, de–nemis, es–ispan, fr–frantsuz, he–ivrit (), hi–xind, it–italyan, ja–yapon, nl–golland, pt–portugal, ru–rus, sa–sansrit, ch–xitoy tillari.

Yana bir qiziq fakt, boshqa matn muharrirlari kabi bunda ham jadvallar ichida kerakli joyda matn yo'nalishini berish mumkin. Buning uchun **dir** atributi qo'llaniladi.

```
<p dir="rtl"> Chapdan ungga karab emas, ungdan chappa karab yozish </p>
```

Bu atribut odatda o'ngdan chap tomonga qarab yoziladigan shriftlar uchun mo'ljallangan.

dir atributi **<tr>** yoki **<td>** elementlari ichida qo'llab, matn yo'nalishini tanlash mumkin bo'ladi. Aytish mumkinki, bu atribut qiymatlari xar-xil brauzerlarda xar xil ko'rinishga ega bo'lishi mumkin.

10-Ma'ruza. HTML formalarini qo'shish. CGI va ma'lumotlar yig'ish.

- A) HTML формалари асослари.
- В) Формалар яратиш. Матнли майдонлар ва атрибутлар.
- С) <input> элементи.
- Д) Менюлар яратиш.

.:A:.

HTML tili web-sahifalar tarkibiga matnli sohalar, menyular, tugmalar kabi interfeys elementlar qo'yish imkoniyatini beradi. Bu ma'lumotlar juda oddiy (elektron adres) yoki yetarlicha murakkab bo'lishi mumkin. Masalan, foydalanuvchi **onlayn** holatida **Internet** dasturlari bilan ishlashi mumkin (kasalxona sayti orqali vrach chaqirishi yoki ishxonasining sayti yordamida avtomobilni prokatga olishi mumkin).

Elektron formalarni yaratishni maqsadi quyidagicha: u foydalanuvchidan informatsiya so'rashi va undan informatsiya olishi mumkin. Bunday holatlarda ma'lumotlarning bir qismini foydalanuvchi o'ziga tegishli bo'lgan ma'lumotni tanlashi mumkin bo'lgan tayyor menyular tashkil etishi mumkin. So'rovlar quyidagi turlarda bo'lishi mumkin:

- ❖ Javoblari maxsus matnli sohalarga terilishi kerak bo'lgan savollar (masalan, ismi, familiyasi, elektron adresi, ...).
- ❖ Javoblari maxsus menyulardagi yoki ro'yxatdagi javoblardan birini tanlashi kerak bulgan savollar (masalan qaysi davlatga tegishli kanligi, qaysi mavzular qiziktirishi, ...).
- ❖ Pereklyuchatellar orqali javoblardan yagonasini tanlashga mo'ljallangan savollar (masalan, erkak/ayol, xa/yo'q...).

Formalar HTML tilining kiritish oynasi, tugma, pereklyuchatel kabi elementlar naborlaridan foydalangan holda yaratiladi. Foydalanuvchi tomonidan yaratilayotgan har bir element o'zining nomiga ega bo'lib, keyinchalik oldindan aniqlangan biror o'zgaruvchiga beriladi. Masalan, matn kiritish maydoniga shahar nomni berilsa va foydalanuvchi maydonni Jizzax deb tuldirsa shuni bildiradiki, shahar o'zgaruvchisiga Jizzax qiymati berildi.

O'zgaruvchilar va ularning qiymatlari serverlarga uzatiladi va o'z navbatida server «skriptlar» deb ataluvchi kichik programmalarga murojaat qiladi. Skriptlar olingan ma'lumotlarni qabul qilib oladi va ularni qayta ishlaydi. Natijada web-sahifada foydalanuvchining ma'lumoti qabul qilinganligi to'g'risida oddiygina ma'lumot (masalan, rahmat) chiqarib qo'yish mumkin.

HTML formalari bilan ishlash uchun skriptlar bilan ishlay olishi kerak (ular CGI skriptlar deyiladi va ularni turli programmalashtirish tillarida tuzish mumkin. CGI–Common Gateway Interface).

.:B:.

Formalar boshqa elementlar konteynori bo'lgan maxsus **<form>** elementi yordamida hosil qilinadi. Konteynorni ishlatishning umumiy sxemasi quyidagicha:
`<form method="get_yoki_post" action="Ma'lumotlar uchun muljallangan URL">`
... forma elementlari...
`</form>`

<form> elementi ikkita, **method** va **action** atributlariga ega. **Method** atributi ma'lumotlarni serverga jo'natish turini aniqlab, **get** yoki **post** qiymatlardan birini qabul qiladi. Odatda **get** metodida ma'lumotlarning hajmi qat'iy chegaralangan bo'ladi (100 simvoldan ko'p bo'lmagan). Umuman agar formada bir nechta element bo'lib, ularni yuqori tezlikda jo'natish kerak bo'lsa, **get** metodi qo'llanilgani birinchi bo'lib uzatiladi. Masalan:
`<form method="get" action="/cgi-bin/search">`

Agar formaga ko'plab ma'lumotlarni joylashtirish kerak bo'lsa, **get** metodi qo'llanilmasligi kerak. Bunday holatlar uchun ma'lumotlar uzatishda ularning hajmlariga bogliq bo'lmagan **post** metodi bor:

`<form method="get" action="/cgi-bin/survey.pl">`

<form> elementining ikkinchi atributi **action** dir. U olingan ma'lumotlarni qayta ishlaydigan skriptning **URL** adresini o'zida saqlashi kerak. Odatda skriptlar serverda **bin/** yoki **cgi-bin/** kataloglaridan birida saqlanadi (hali keyingi mavzularda skriptlar haqida tuluqroq ma'lumot beriladi).

Formalar qo'llanilishining eng ko'p tarqalgan usuli bu foydalanuvchidan matnli ma'lumotlar olishga mo'ljallangan. Bu masalan, sayt haqida foydalanuvchining fikri yoki foydalanuvchining elektron adresi yozilishiga mo'ljallangan bo'lishi mumkin. Buning uchun matnli maydon hosil qilinishi kerak. **<textarea>** elementi shu vazifani bajarishga mo'ljallangan. Ma'lumotlar kiritiladigan oynaning qatorlari va ustunlari sonini o'rnatish mumkin:

`<textarea name="comments" rows="5" cols="100">`

Bu erga elektron pochta adresingizni kiriting
`</textarea>`

Bu yerdagi o'rtadagi matn ekranda hosil buladi. Yuqoridagi atributlardan tashqari yana **readonly** atributi ham qo'llanilishi mumkin (`readonly="readonly"`). Bu atribut qo'llanilganda ekranda hosil bo'luvchi matnni o'zgartirishning iloji yo'q.

.:C:.

Ko'p hollarda foydalanuvchilardan chegaralangan javoblardan birini tanlash talab qilinadi. **<input>** elementi yordamida bir nechta boshqaruv elementlarini hosil qilish mumkin:

- ❖ Kiritish maydoni (`type="text"`). Bu bizga yuqorida keltirilgan elementni eslatadi. Farqi bunda faqatgina bir qatorli oyna hosil bo'ladi. Odatda

foydalanuvchi ismi, familiyasiga o'xshash ma'lumotlarni kiritishi uchun ishlatiladi. **Size** atributi yordamida uning uzunligini berish mumkin. **value** atributi yordamida biror matnni kiritish mumkin (po umolchaniyu):

Фамилия: `<input type="text" name="last_name" size="40" maxlength="40" value="Petrov" />` ;

- ❖ Parol (type="password"). Bu maxsus ma'lumot kiritish maydoni bo'lib, foydalanuvchi tomonidan kiritilgan ma'lumotlar ekranga o'qilmaydigan holatda chiqariladi. Bu text turiga o'xshab ketadi. Uni bo'sh qoldirish mumkin yoki «*» belgisi orqali biror parolni yozish mumkin:

Parolni kiriting: `<input type="password" name="password1" size="10" maxlength="10" />`

- ❖ Flajok (type="checkbox"). Foydalanuvchi tavsiya etilgan variantlardan bir nechtasini o'rnatishi yoki bekor qilishi mumkin. Oldindan birortasini belgilab qo'yish imkoniyati ham bor:

Saytni qanday topdingiz: `<br />`

`<input type="checkbox" name="web" checked="checked" />` Internet kidiruv sistemalaridan`<br />`

`<input type="checkbox" name="tele" />` Radio yoki televidenie reklamalaridan`<br />`

`<input type="checkbox" name="press" />` Gazeta yoki jurnallardan`<br />`

- ❖ Pereklyuchatel (type="radio"). Foydalanuvchi bir nechta variantlardan faqat bittasini tanlashi mumkin bo'ladi. Bu flajok elementiga o'xshaydi biroq bu erdagi ma'lumotlardan faqat bittasini tanlash mumkin. Har qaysi pereklyuchatel **value** atributiga ega bo'lishi shart. Oldindan biror variantni belgilab qo'yish ham mumkinki, foydalanuvchi ulardan birortasini belgilashni unutgan holda kelib chiqishi mumkin bo'lgan xatolikning oldini olish mumkin:

Saytni kanday topdingiz: `<br />`

`<input type="radio" name="where" value="web" checked="checked" />` Internet kidiruv sistemalaridan`<br />`

`<input type="radio" name="where" value="tele" />` Radio yoki televidenie reklamalaridan`<br />`

`<input type="radio" name="where" value="press" />` Gazeta yoki jurnallardan`<br />`

- ❖ Yopiq maydon (type="hidden"). Bu kiritish maydonining ko'rinmas holati bo'lib, undagi ma'lumotni o'zgartirish mumkin emas. Bu elementning ma'lumotlar kiritilishiga umuman aloqasi yo'q. Uning qiladigan vazifasi biror qiymatni serverga jo'natishdir. Masalan, bir nechta formalarni qayta ishlash uchun aynan bitta skript ishlatilsa, qaysi formadagi ma'lumotlar ishlanayotganligini bildirish uchun forma nomini kiritib ko'yish mumkin:

`<input type="hidden" name="forma_nomi" value=form2" />`

- ❖ Boshqarish tugmasi (type="button", type="reset", type="submit"). O'zgarishlarni tasdiqlash yoki ularni bekor qilish tugmalari. Tugmalardan foydalanishda type="reset" qo'llanilsa, formadagi hamma o'zgarishlarni tozalash imkoniyati bo'ladi. Ya'ni tugmani bosish natijasida forma avvalgi holatga qaytadi:

`<input type="reset" value="Formani tozalash" />`

Kiritilgan ma'lumotlarni tasdiqlab serverga jo'natish tugmasini yasash xam mumkin: type="submit". Bu yerda faqat **value** atributi qo'llanilishi yetarli:

```
<input type="submit" value="Тасдиқлаш" />
```

Tugmaning ustiga istalgan matnni yozish mumkin. **Ok** har doim ham tushunarli bo'lavermasligi mumkin.

Agar tasdiqlash tugmasida grafikadan foydalanmokchi bo'lsak, type="image" ni qo'llash mumkin. Bunda grafik faylning **URL** adresini va alternativ matnni kiritish kerak bo'ladi:

```
<input type="image" src="D:\DocAzamat\Web\Gerb.gif" alt="Tasdiklash " />
```

Bundan tashqari <button> elementi ham mavjud bo'lib, uning yordamida ixtiyoriy tugmani formaga qo'yish mumkin. Uning **type** atributi mavjud bo'lib, uchta **reset**, **submit**, **image** qiymatlardan birini qabul qilishi mumkin. U alohida konteynor bo'lganligi sababli ni ham qo'llash mumkin:

```
<button name="submit" type="submit">
<span style="font-family: Courier New; font-size: 14pt; font-variant: small-caps"> Junatish</span>
</button>
```

yoki

```
<button name="reset" type="reset">

</button>
```

.:D:.

Boshqarish elementining yana bir ko'rinishi bu – menyulardir. <select> elementi yordamida xar xil menyularni hosil qilish mumkin. Bu holatlarda foydalanuvchiga bir nechta variantlar berilib, undan o'zining javobini tanlash imkoniyati beriladi. **Name** atributi zaruriy atribut hisoblanadi. **Size** atributi yordamida esa ekranga bir vaqtda chiqadigan variantlar sonini berish mumkin.

<select> bu konteynordir. Qiymatlar <option> yordamida kiritilib, <select> va </select> lar orasiga joylashtiriladi. Agar foydalanuvchi menyuning biror-bir punktini tanlasa qiymat <select> tegida nomlangan o'zgaruvchiga beriladi.

Selected="selected" atributi biror qiymatni avtomatik tanlash imkoniyatini beradi (znachenie po umolchaniyu):

Siz bu saytga kup murojaat kilasizmi?

```
<select name="javob1">
<option value="first">Birinchii matra</option>
<option value="monthly">Xar oyda </option>
<option value="weekly">Xar xaftada </option>
<option selected="selected" value="daily">Xar kunda </option>
```

Yuqrida aytilganidek, **size** atributi yordamida ekranga chiqiriladigan javoblar sonini kiritish mumkin:

```
<select name="javob1" size="6">
```

Birinchii misolda javoblar bir qatorda ifodalanadi va sichqon tugmasi bosilganda qolgan javoblar ko'rinadi. Ikkinchii misolda **size** da necha son ko'rsatilgan bo'lsa shuncha javob varianti ko'rsatiladi va qolgan javoblarni prokrutkalarini siljitish yordamida ko'rish mumkin.

Agar javoblardan bir nechtasini bir vaqtda tanlash zarur bo'ladigan bo'lsa `<select>` ning `multiple="multiple"` atributi yordamga keladi. Bu holatda **size** da nechta javoblar ko'rsatilgan bo'lsa shulardan bir nechtasini tanlash imkoniyati bo'ladi. Yuqoridagi misolda `<select name="javob1" multiple="multiple">` deb yozsak, javob variantlardan bir nechtasini tanlash imkoniyati paydo bo'ladi.

`<select>` va menyular haqida gapirganda `<optgroup>` elementi haqida gapirish kerak bo'ladi. Bu element menyu yaratishda ularni bir nechta guruhlariga ajratish imkoniyatini beradi:

`<p>Uzingizni kiziktirgan fanlardan birini tanlash imkoniti bor:`
`</p>`

```
<select name="javob" size="15" multiple="multiple">
<optgroup label="Informatika ">
<option value="Internet"> Internet va elektron pochta
asoslari</option>
<option value="Web"> Web-texnologiyalar </option>
<option value="Infor"> Informatika asoslari </option>
</optgroup>
<optgroup label="Matematika ">
<option value="mattaxlil"> Matematik taxlil</option>
<option value="ehtimol"> Extimollar nazariyasi </option>
</optgroup>
<optgroup label="Fizika ">
<option value="elementar"> Elementar zarralar fizifasi </option>
<option value="kvant"> Kvant fizikasi </option>
</optgroup>
```

Shuni aytish mumkinki, `<optgroup>` elementini hamma brauzerlar ham «tanimaydi». Lekin uni qo'llash xatolikka olib kelmaydi, chunki uni qo'llamaydigan brauzerlar oddiy mavzularni ko'rsatmasdan faqat menyuning o'zini ko'rsatishadi.

Ko'pchilik foydalanuvchilar formada **[Tab]** tugmasi yordamida harakatlanishga odatlanganlar. Agar siz ham biror elementlar orasida harakatni **[Tab]** tugmasi yordamida ta'minlamoqchi bo'lsangiz, **tabindex** atributidan foydalanishingiz mumkin. U 0 dan 32676 gacha bo'lgan qiymatni qabul qiladi. Shuni aytish mumkinki, elementlar orasidagi harakat **tabindex** i eng kichikdan kattasiga tomon bo'ladi.

Ilovalar

Ilova -1.

Bu kodni yozib, tayyor web sahifa yaratish mumkin.

[illegible]

```

<tr><td width=590 valign=top align=left colspan=2></td></tr>
</table>
<table border=0 cellspacing=0 cellpadding=0 width=590><tr>
<td width=437 bgcolor="#eeeeee" valign=top align=left>
<table border=0 cellpadding=0 cellspacing=0 width=437><tr><td
width=437 height=10 colspan=3></td></tr>
<tr><td width=10></td>
<td width=417 valign=top align=left>
<h3>Xush kelibsiz</h3>
<font face="Arial, Verdana, Helvetica" size=2>
<p>Internetning paydo bo'lishi tarixi 60-yillarning oxirida
Amerika hukumati tomonidan asos solingan ARPANet (Advanced
Research Projects Agency tashkiloti)
hisoblash tarmog'iga borib taqaladi. Tarmoq harbiy
tashkilotlarga xizmat qilgan. </p>
<p> 1980 yillar boshlarida ma'lumotlarni uzatishni boshqarish
protokoli TCP/IP (Transmission Control Protocol / Internet
Protocol) ga asos solindi. Taxminan shu vaqtda ma'lum bo'ldiki,
TCP/IP
dan turli milliy va xalqaro darajadagi kompyuter tarmoqlarini
bog'lashda
foydalanish mumkin...</p>
<p>
<!--Start Table-->
<table border=0 width=400 cellpadding=0 cellspacing=0>
<tr>
<td width=400 valign=top colspan=2><font face="arial" size=2>
<br></font>
1993 yilda birinchi web-brauzer Mosaic paydo bo'ldi.<font
face="arial" size=2><p>
</td>
</tr>
<tr>
<td width=200 valign=top align=left><font face="arial" size=2>
<ul>
<li><a href="">birinchi ssilka</a>
<li><a href="">ikkinchi ssilka</a>
<li><a href="">uchinchi ssilka</a>
<li><a href="">to'rtinchi ssilka</a>
<li><a href="">beshizinchi ssilka</a>
</ul>
</td>
<td width=200 valign=top align=left><font face="arial" size="2">
<ul>
<li>
&nbsp;<li><a href="">oltizinchi ssilka</a>
<li><a href="">yettizinchi ssilka</a>
<li><a href="">sakkizinchi ssilka</a>

```

```

<li><a href="">to'qqizinchil ssilka</a>
<li><a href="">o'nizinchil ssilka</a>
</ul>
</td>
</tr>
</table>
<br>
</font>
</td><td width=10></td></tr>
<tr><td width=437 height=10 colspan=3></td></tr>
</table>
</td>
<td width=1 bgcolor="#000000" valign=top align=left></td>
<td width=150 rowspan=2 valign=top bgcolor="#C6D1FF">
<table border=0 bgcolor="#001A82" cellpadding=0 cellspacing=0
height=50 width=100%><tr><td><font face="arial" size=3
color="#F0B850">
<center><b>&nbsp;Webda foydali bo'lgan ba'zi bir
ssilkalar</b></font></center></td></tr></table>
<br>
<a href=""><b>&nbsp;Birinchi bo'lim</b></a><font face="arial"
size="2"><ul>
<li>Matematika
<li>Informatika
<li>Fizika
</ul>
<br><br>
<font face="arial" size=3 color="#F0B850">
<a href=""><b>&nbsp;Ikkinchi bo'lim</b></a></font><ul>
<li>HTML
<li>JavaScript
<li>VB
<li>Delphi
<li>C++
<li>C #
</ul></td>
</tr></table>
<table border=0 cellpadding=0 cellspacing=0 width=590
bgcolor="#001A82">
<tr><td width=590 valign=top align=left colspan=2></td></tr>
<tr><td width=200 height=24 valign=center align=left>
<font face="Arial, Verdana, Helvetica" size="1"
color="#FFFFFF">Sizning
Ismnigiz</font></td>

```

```
<td width=390 height=17 valign=center align=right><font
face="Arial, Verdana, Helvetica" size=1 color="#ffffff">©
Copyright 2005
Sizing kompaniyangiz nomi. All rights
reserved.&nbsp;&nbsp;&nbsp;</td></tr>
<tr><td width=590 valign=top align=left colspan=2></td></tr>
</table>
</center>
</td></tr></table>
<center><br></center>
</body>
</html>
```

Ba'zi bir scriptlar kodlari

1. Joriy hafta va kunni aniqlash:

Kodning tajijasi joriy hafta yilning nechanchi haftasi ekanligini aniqlashga mo'ljallangan.

```
<!-- <HEAD></HEAD> lar orasiga quyidagi kodni yozing:-->

<HEAD>

<SCRIPT LANGUAGE="JavaScript">

<!-- Begin
function formatDate(date) {
var mymonth = date.getMonth()+1;
var myweekday = date.getDate();
return (mymonth + "/" + myweekday);
}
function printWeek() {
var now = new Date();
var nowDayOfWeek = now.getDay();
var nowDay = now.getDate();
var nowMonth = now.getMonth();
var nowYear = now.getYear();
nowYear += (nowYear < 2000) ? 1900 : 0;
var weekStartDate = new Date(nowYear, nowMonth, nowDay -
nowDayOfWeek);
var weekEndDate = new Date(nowYear, nowMonth, nowDay + (6 -
nowDayOfWeek));
document.write("Joriy hafta: " + formatDate(weekStartDate) + "
- " + formatDate(weekEndDate));
}
// End -->
</script>
</HEAD>

<!-- Bu qismni esa html hujjatning asosiy qisminga
joylashtiring-->

<BODY>

<script>
printWeek();
</script>
```

2. Operatsion sistema turini aniqlash.

Quyidagi kodni <head>...</head> orasiga joylashtiring. Natijada kompyuterga o'rnatilgan operatsion sistema aniqlanadi va foydalanuvchiga xabar beriladi.

```
<SCRIPT LANGUAGE = "JavaScript">
//this script was created by Dan Clark
agent = navigator.userAgent;
if (agent.lastIndexOf("Win95"))
{
    alert('Bu sistema Windows ');
}
else if (agent.lastIndexOf("Mac"))
{
    alert('Mac - eng zo'r kompyuter');
}
else if (agent.lastIndexOf("Unix"))
{
    alert('Unix - kimning qo'lidan kelsagina ishlay oladi');
}
else if (agent.lastIndexOf("Linux"))
{
    alert('Linux ni ko'pchilik yaxshi ko'radi');
}
</script>
```

3. Ekran fonini avtomatik o'zgartirish.

Quyida keltirilayotgan kod bajarilishi natijasida ekranda ikkita tugma hosil bo'ladi. **Ishlatish** tugmasi bosilsa, web-sahifa fonining rangi avtomatik ravishda o'zgarib boshlaydi. To'xtatish tugmasi bosilgandan so'nggina oxirgi rang web-sahifaning fonining rangini ifodalaydi.

```
<!--Quyidagi qismni web-hujjatingizning <HEAD></HEAD> lari
orasiga joylashtiring-->
<HEAD>
<SCRIPT LANGUAGE="Javascript">
<!-- Begin
var COLOR = 999999
var woot = 0
function stoploop() {
document.bgColor = '#000000';
clearTimeout(loopID);
}
function loopBackground() {
if (COLOR > 0) {
document.bgColor = '#' + COLOR
COLOR -= 111111
loopID = setTimeout("loopBackground()",1)
} else {
document.bgColor = '#000000'
woot += 10
COLOR = 999999
COLOR -= woot
loopID = setTimeout("loopBackground()",1)
}
}
// End -->
</SCRIPT>
</HEAD>
<!--Bu kodni esa web-sahifaning asosiy qismiga joylashtiring -->
<BODY>
<CENTER>
<FORM NAME="background">
<INPUT TYPE="button" VALUE="Ishlatish"
onClick="loopBackground()">
<br>
<input type="button" value="To'xtatish" onClick="stoploop()">
</FORM>
</CENTER>
```

4. Foydalanuvchining web-brauseri haqida ma'lumot olish.

Skriptning asosiy vazifasi foydalanuvchining web-brauseri haqida ma'lumot to'plash va uni foydalanuvchiga etkazish.

```
<SCRIPT>
<!--function showLongstats()
{
alert(navigator.appName + "\n" + navigator.appCodeName + "\n" +
navigator.appVersion + "\nJava compatibility = " +
navigator.javaEnabled());
}
function showStats()
{
alert("Sizning web-brauseringiz: " + navigator.appCodeName + "
type browser.\nSizning brauseringiz " + navigator.appName +
".\n");}
//-->
</SCRIPT>
</HEAD>
<BODY BGCOLOR="#000000" TEXT="#FFFFFF" LINK="#00FF00"
VLINK="#008000" ALINK="#0000FF">
<SCRIPT LANGUAGE="JavaScript">
<!--
document.write('<CENTER>' + "Sizda" + '<B><FONT
COLOR="#ffcc66">' + " JavaScript" + '</FONT></B>' + " funksiyasi
yoqilgan" + '<BR>');
document.write("Siz" + navigator.appName + " brauseridan
foylanasiz." + '<BR>');
document.write('<form><INPUT TYPE=BUTTON VALUE="Qisqa malumot"
onClick="showStats()"><BR>');
document.write('<INPUT TYPE=BUTTON VALUE="Tuliq malumot"
onClick="showLongstats()"></form><BR>');
document.write('</CENTER>');
//-->
</SCRIPT>
<NOSCRIPT>
<CENTER>
Sizda JavaScript poddarjka funksiyasi ulanmagan
</CENTER>
</NOSCRIPT>
```

5. Kunning xar xil vaqtida turlicha murojaat qilish.

Script bajarilishi natijasida sutkaning turli vaqtida foydalanuvchiga turlicha murojaat qilinadi.

```
<script language="JavaScript">
<!--
    Today = new Date();
    h = Today.getHours();
    // Sutkaning turli vaqylarida murojaat qilinadigan mant:
    document.write("<b align=\"center\">");
    if (h<12) document.write("Xayrli tong! ");
    else if (h<16) document.write("Xayrli kun! ");
    else if (h<23) document.write("Xayrli kech! ");
    else if (h<5) document.write("Xayrli oqshom! ");
    //
    r = document.referrer;
    if (r.length > 0) {
        Site = "";
        if (r.indexOf("list") >= 0)           Site = "List";
        else if (r.indexOf("rambler") >= 0)   Site = "Rambler";
        else if (r.indexOf("yandex") >= 0)    Site = "Yandex";
        else if (r.indexOf("aport") >= 0)     Site = "Aport";
        else if (r.indexOf("excite") >= 0)    Site = "Excite";
        else if (r.indexOf("webcrawler") >= 0) Site =
"Webcrawler";
        else if (r.indexOf("hotbot") >= 0)     Site = "HotBot";
        if (Site.length > 0) {
            document.write("<b>0 siz bu yerda ekansiz:");
            document.write(Site);
            document.write("!</b>");
        }
    }
    document.write("</b>");
    // -->
</script>
```

ASOSIY ADABIYOTLAR

1. T. Stauffer. Sozdanie web-stranits. Samouchitel. – «Piter», Sankt-Peterburg, 2003 g.
2. A. Goncharev. HTML. Samouchitel. – «Piter», Sankt-Peterburg, 2001 g.
3. Allen Vayk. JavaScript. Entsiklopediya polzovatelya: per. s. ang. – «TID» «DS», Kiev, 2001 g.
4. webmastering – elektron o'quv qo'llanma.

QO'SHIMCHA ADABIYOTLAR

1. A.I. Tixonov. «Publikatsiya dannix v Internet» Uchebnoe posobie. Moskva Izdatelstvo «Mir» 2000
2. JavaScript ni urganish buyicha elektron qo'llanmalar
3. Internet veb-saytlari:
 - a. <http://www.cgi.ru>
 - b. <http://www.woweb.ru>
 - c. <http://www.ru>
 - d. <http://www.vanta.ru/script/>
 - e. <http://www.vbnet.ru>
 - f. <http://www.scriptic.ru/>
 - g. <http://www.webacademy.com/>
 - h. <http://pacificwebart.com/>